

Tadlid

adabiy, ilmiy-ma'rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

INSON QADRINI ULUG'LASH, AVVALO, AZIZ-U MUKARRAMA AYOLLARNI ULUG'LASHDAN BOSHLANADI

Toshkent shahrida Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag'ishlangan tantanali marosim bo'lib o'tdi.



Marosimda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ishtirok etib, ayollarga samimiy mehri va hurmatini izhor etdi.

Biz har yili bu kunning intiqlik, qalbimizda ajib iliqlik bilan kutamiz. Ushbu shukuhli ayyomda hammamiz bizni dunyoga keltirgan, oq sut, mehr va tarbiya berib voyaga yetkazgan buyuk ona siyomosiga, mo'tabar ayol zotiga ta'zim qilamiz. Zero, inson qadrini ulug'lash, avvalo, aziz-u mukarrama ayollarimizni ulug'lashdan boshlanadi, dedi Prezident.

Mamlakatimizda bu maqsad yo'lida ko'p ishlar qilinmoqda. Jumladan, "O'zbekiston - 2030" strategiyasi doirasida xotin-qizlarning faolligini oshirish, onalik va bolalikni himoya qilish, gen-

der tenglikni qaror toptirish, ayollarning huquq va manfaatlarini ta'minlash bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Bu barcha sohalarida namoyon. Masalan, siyosiy sohani olsak, saylov kodeksimizda deputatlikka nomzodlarning kamida 40 foizi yoki har 5 nafaridan 2 nafari ayol kishi bo'lishi zarurligi belgilangan. Hozirgi vaqtda xotin-qizlarning davlat boshqaruvdagi ulushi 2017-yildagi 27 foizdan 35 foizga oshgan.

Xotin-qizlarning iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish, ular o'rtasida tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha ham salmoqli natijalarga erishilmoqda. So'nggi besh yil ichida O'zbekistonda ishbi-larmon ayollar safi ikki baravar kengayib, o'z biznesini yo'lga qo'ygan tadbirkor

xotin-qizlar soni 205 mingdan oshdi. Shuningdek, 200 mingga yaqin ayollar kasb-hunar va tadbirkorlikka o'qitildi. 400 mingdan ko'pi ish bilan ta'minlandi.

Kelajak tarbiyachilari bo'lmish qizlar kamolotiga katta ahamiyat berilmoqda. Hozirgi vaqtda oliygohlarda ta'lim olayotgan 1 million 300 ming nafarga yaqin talabalar yarmidan ko'pin qizlar tashkil etmoqda. Eh-tiyojmand oilalarga mansub xotin-qizlar qo'shimcha davlat granti bo'yicha o'qishga qabul qilinmoqda. Ular uchun imtiyozli ta'lim kreditlari ajratish, ijtimoiy himoyaga muhtojlarning kontrakt pulni qoplab berish yo'lga qo'yilgan.

Yurtimiz xotin-qizlari ilmfanda ham katta natijalarga erishmoqdalar. So'nggi yetti yilda 5 ming 247 nafar ayol-

lar ilmiy darajalar olgan. "Bir million dasturchi" loyihasi doirasida ta'lim olgan yoshlarining 47 foizini qizlar tashkil etgan.

Qanchalik qiyin bo'lmasin, biz qo'shimcha imkoniyat topib, ijtimoiy sohalarni rivojlantirish, xotin-qizlarning o'z salohiyatini ro'yobga chiqarishlari uchun sharoit yaratmoqdamiz va bu ishlarimiz, albatta, davom etadi. Chunki ayollarning, xususan, qiz bolaning o'qib, oliy ma'lumotli bo'lishi, kasb-hunar egallashi oila baxti, farzandlar kamoli, shu asosda butun jamiyat ravnaqi uchun xizmat qiladi, dedi Shavkat Mirziyoyev.

Prezident Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili Davlat dasturida belgilangan, xotin-qizlarning sog'lig'ini mustahkamlash, bandligini ta'minlash, ayol-

lar tadbirkorligini rivojlantirish, ijtimoiy himoyasini kuchaytirishga qaratilgan vazifalarga to'xtalib o'tdi.

Bu borada Senat Raisi boshchiligidagi maxsus komissiya tuzilib, xotin-qizlarni kasb-hunarga o'qitish, bandligini ta'minlash va tadbirkorlikka jalb qilish bo'yicha ishlar mutlaqo yangicha yondashuvlar va tizim asosida tashkil qilinadi.

Viloyat, tuman, shahar hokimlari, hokimliklarning xotin-qizlar ishlari bo'yicha o'rinbosarlari hamda faol ayollar Komissiya bilan birgalikda joriy yilda 9 442 ta mahalladagi 580 mingga yaqin ishsiz ayollarning bandligini ta'minlashga mas'ul etib belgilanadi.

Umuman, bir oy mudatda xotin-qizlarni tadbirkorlikka keng jalb qilish bo'yicha alohida dastur qabul qilinib, loyihalarni amalga oshirish uchun 15 trillion so'm ajratiladi. Bundan tashqari, Saudiya Arabistoni, Qatar, Yaponiya, Janubiy Koreya va Germaniyadan 100 million dollar grant jalb qilinadi.

O'zbekiston mahallalari uyushmasi va uning hududiy tuzilmalari, "mahalla yetiligi" tarkibidagi xotin-qizlar faollari ayollarga ko'makchi, oilaviy masalalarda yaqin sirdoshi bo'lishi lozimligi ta'kidlandi.

Ayol zoti uchun eng ulug' - onalik baxti. Yurtimiz aholisi har yili qariyb 900 mingga ko'paymoqda. Ularni jismoniy va ma'naviy barkamol etib, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash muqaddas burch.

Shu ma'noda, davlatimiz rahbari barcha ayollarga murojaat qildi.

Biz ma'naviy tarbiya ishlarini endi mutlaqo yangicha usulda olib borishimiz

kerak. "Ezgulik - shiorimiz, ma'rifat - qurolimiz" degan g'oya asosida bu jarayonni, avvalo, oiladan, mahalladan boshlashimiz lozim. Zotan, hadisi sharifda aytilganidek, "Ota-ona o'z farzandiga yaxshi tarbiyadan boshqa meros qoldirolmaydi". Muhtarama opa-singillarimiz, duogo'y onaxonlarimizning mas'uliyati - aynan ana shu masalalarda yaqqol namoyon bo'ladi, - deya ta'kidlandi Prezident.

Mamlakatimizda xotin-qizlarga qaratilayotgan e'tibor xalqaro miqyosda e'tirof etilmoqda. Jahon bankingning kuni kecha e'lon qilingan indeksida O'zbekiston gender tenglik sohasida dunyodagi eng tez rivojlanayotgan 5 ta mamlakat qatorida qayd etildi. Joriy yilda yurtimiz yana bir yirik anjuman - Osiyo xotin-qizlar forumiga mezbonlik qiladi.

Prezidentimiz bayram tadbirida qatnashayotgan xorijiy davlatlarning elchilari va xalqaro tashkilotlar vakillarini ham samimiy qutladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 4-martdagi qaroriga binoan esa 28 nafar qiz Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti bilan, 5-martdagi farmonga muvofiq turli sohalarda faol bo'lgan ayollar orden va medallar bilan taqdirlangan edi. Tadbirda ana shu yuksak mukofotlar tantanali ravishda topshirildi.

Yurtimizning turli hududlaridan tashrif buyurgan xotin-qizlar, davlat va jamoat tashkilotlari vakillari fayzli dasturxon atrofida bayramni nishonladi.

Bayram tantanali konsert dasturi bilan davom etdi.

O'ZA

Ushbu shukuhli ayyomda hammamiz bizni dunyoga keltirgan, oq sut berib, mehr va tarbiya berib voyaga yetkazgan buyuk ona siyomosiga, mo'tabar ayol zotiga ta'zim qilamiz. Zero, inson qadrini ulug'lash avvalo aziz-u mukarrama ayollarimizni ulug'lashdan boshlanadi.

Shu ma'noda, Mir Alisher Navoiy bobomizning, jannat bog'idan bahramandlik istar ekansan, avvalo, munis onani rozi aylagin, degan so'zlarini biz eng ezgu da'vat sifatida qabul qilamiz.

Biz hayotimizning ma'no-mazmuni, butun borlig'imizni siz, qadrlar opa-singillarimizdan ayri holda tasavvur etolmaymiz.

Sizlar biz uchun hamisha go'zallik va nazokat, mehr va sadoqat, qanoat va shukronalik timsoli bo'lib kelgansiz va doimo shunday bo'lib qolasiz.

Mana shunday olijanob fazilatlaringiz bilan bizlarga hamma vaqt kuch-g'ayrat, hayotga, kelajakka ishonch bag'ishlab kelayotganingiz uchun siz, azizlarga har qancha tahsin va tasannolar aytisak arziydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Shavkat Mirziyoyevning 8-mart - Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag'ishlab o'tkazilgan tantanali marosimdagii ma'ruzasidan.

JARAYON

YURT ARSLONLARI

Oldimizda turgan eng ezgu maqsadlar ro'yobi - mamlakatimizning kelajagi, hayotimizning erkin va farovonligi yangi avlod, unib-o'sib kelayotgan yoshlarning qanday inson bo'lib voyaga yetishiga bog'liq.

Prezidentimiz, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Shavkat Mirmonovich Mirziyoyev ta'biri bilan aytganda, bugungi tahlikali sharoitda biz barqarorlik va xavfsizligimizga ziyon yetkazadigan har qanday tahdid va xatarlarga keskin qarshi turishimiz lozim. Mamlakatimiz rivojlanishidan manfaatdor bo'lmagan turli buzg'unchi tashqi kuchlarga asosli javoblarimiz, samarali tadbirlarimiz doim shay bo'lishi shart. Xalqimiz yanada jipslashishi, bir musht bo'lib ularga qarshi turishi kerak.

Bugun jonajon O'zbekistonimizda tinchlik va osoyishtalikni saqlash, farzandlarimiz va nabiralariimizning yorug' kelajagini ta'minlash uchun metin iroda, jipslik va yakdillik har qachongidan ham zarur.

Darhaqiqat, mamlakat xavfsizligi ong-u qalb mudo-faasidan boshlanishi nazarda tutilib, yurtimizda ma'naviy-ma'rifiy islohotlar yangi sur'atlarda davom etayapti. Bu boradagi ishlarni izchil yo'lga qo'yish uchun ilgari tasavvurga ham sig'maydigan darajada katta mablag' va kuch sarflanayapti. Istiqlolni, tinchlikni asrashning o'zi bo'lmaydi. Buning uchun kuchli ma'naviyatga ega xalq bilan birga harbiy-jangovar salohiyati yuqori va yuksak ma'naviyatli Qurolli Kuchlar ham zarur. Asl vatanparvarlik tuyg'usi, shubhasiz, soha maktab-liseylarida dastlabki amalini oladi.

(Davomi 4-sahifada.)

OG'RIQLI NUQTA

XALQ MULKI MUQADDAS!

Bugungi kunda jamiyatimiz hayotida "Yangi O'zbekiston" va "Uchinchi Renessans" so'zlari o'zaro hamohang va uyg'un shaklda qo'llanilib, xalqimizning yagona maqsad sari intilishida asosiy yo'nalish bo'lib xizmat qilmoqda. Darhaqiqat, mustaqil taraqqiyot yo'limizni belgilab olganimizdan beri o'tgan vaqt mobaynida "Yangi O'zbekiston" tushunchasining hayotimizga kirib kelishi ham o'ziga xos zarurat mahsulidir.

Ayni vaqtda O'zbekiston o'tmishda boshlangan ishlarning barcha jihatlari chunqur idrok etib, tarixiy tajribaga tayanib, o'z taraqqiyotining butunlay yangi bosqichiga dadil qadam qo'yimoqda, deysingha to'la haqlimiz.

Bunday mas'uliyatli pallada yosh avlod ta'lim-tarbiyasi mamlakat taraqqiyoti va farovonligi uchun nihoyatda muhim hisoblanadi. Ma'rifatparvar olim va adibimiz Abdulla Avloniy ta'biri bilan aytganda, bugun tom ma'noda "tarbiya biz uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir".

Keyingi yillarda muhtaram Prezidentimizning tashabbusi bilan ta'lim tizimining muhim bosqichi - xalq ta'limi sohasini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Ta'bir joiz bo'lsa, bu masala davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishi darajasiga ko'tarildi.

(Davomi 5-sahifada.)

E'ZOS

Yangi O'zbekistonni barpo etish, xalqimiz farovonligini yuksaltirish yo'lida tashabbus va ibrat ko'rsatib kelayotgan bir guruh fidoyi ayollarimiz kuni kecha 8-mart - Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan Prezidentimiz Farmoniga asosan davlatimizning yuksak mukofotlari bilan taqdirlandi. Ular orasida ijodkor ayollarimizning ham borligi bizni quvontirdi.

UMR MAZMUNI



Guliston ANNAQILICHYEVA,
"Qoraqalpog' adabiyoti" gazetasi bosh muharriri, shoira,
"Mehnat shuhrati" ordeni sohibasi:

Ayni damda qalbmida kechayotgan tuyg'ularni, hayajonni yashira olmayman. Oltmish yil uzluksiz ham jurnalistika, ham davlat ishlarida faoliyat yuritdim. Shu yoshga kirib, Davlat rahbarining qo'lidan shunday ulug' mukofotni olish... qalbmimni to'qinlantirib yubordi. Axir, bu ayol zotiga bo'lgan yuksak mehr, e'tibor namunasini emasmi?!

Hayotim oddiy qishloq ayollariniki kabi o'tdi. Qiyinchiliklar, mashaqqatlar, quvonchli lahzalar, baxtdan to'lib-toshgan onlarimiz bo'ldi. Ko'z yoshlar ham... Ba'zan o'ylanib, ikkilanib ham qolganman.

(Davomi 2-sahifada.)

EHTIROM

AYOL SURATIGA CHIZGILAR

Ayol kim, uning nafosati, jozibasi, go'zalligi qanday mezonlar asosida baholanadi? Bu sifatlar faqat ularning tashqi ko'rinishi bilan belgilanadimi? Albatta, yo'q. Ayollik tarovati avvalo, uning ma'naviyati, ichki dunyosi, go'zal ruhiyati, xulq-atvori va axloqining to'kisligi bilan o'lchanadi. Xo'sh, shu ma'noda, o'zbek ayolining kechagi va bugungi qiyofasi qay ko'rinishda?

Ma'lumki, qadimdan Sharq ayoli o'zini tutishdan tortib, husn-u jamoli-yu, aql-u kamoli bilan o'zga xalqlarni hayratga solib kelgan. Gerodotning "Tarix" asarida tarannum etilgan massagetlar malikasi To'marisning jasorati, Klavixo kundaliklarida tilga olingan temuriy malikalik shaxsiyatidagi ulug'vorlik dunyo aholini hayrat va hayajonga solgan. Ular momolarmizga xos bo'lgan asizodalik, axloqiy va ma'naviy poklik sirini bilishga urinishgan.

Tarixning guvohlik berishicha, jahonda ayollar orasidan taniqli hukmdorlar, dono maslahatgo'ylar, fozila, olima, shoiralar va san'at vakillari yetishib chiqqan. Ayniqsa, Sharq mamlakatlari tarixida ular ko'pchilikni tashkil qiladi. Temuriylar sulolasiga mansub bo'lgan Saroy Mulkxonim, Gavharshodbegim, Shodmulk Xotun, Xadixabegim, Xonzodabegim, Gulbadanbegim kabi malikalarning ibratli hayoti bunga yaqqol dalildir. Xususan, Saroy Mulkxonim aql-zakovat, yuksak idrok, did-farosat bobida benazir bo'lgani bois "Bibixonim", ya'ni "katta xonim" degan e'zozga musharraf bo'lgan.

(Davomi 3-sahifada.)



UMR MAZMUNI

Boshlanishi 1-sahifada.



Ma'suma AHMEDOVA,
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi
a'zosi, adiba,
"Do'stlik" ordeni sohibasi:

– Xalqaro xotin-qizlar kuni men uchun qo'shaloq bayram bo'ldi. Kuni kecha O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Nasr kengashi muhokamasida "Mangu kuy" nomli yangi qissam e'tirof etilgandi. Bugun esa... qalbm kutilmagan quvonchga to'ldi. Rosti, bunday

yuksak mukofotga munosib ko'rishlari xayolimga ham kelmagandi. Do'stlarimning tabriklarini qabul qilar ekanman, ulkan rag'batni his etdim. Qalbimda shukronalik tuyg'ulari barq urdi. Yozgan asarlarimni birma-bir yodga oldim. G'ayratim jo'shdi. Ha, rag'bat va e'tiroflar biz ijodkorlarni yurtimizda amalga oshirayotgan bunyodkorlikka, xalqimizning yaratuvchanlik qudratiga bag'ishlangan yangi asarlar yaratishga undaydi.

Adabiyotimiz, xalqimiz madaniyati rivoji yo'lida qo'limdan kelgan cha xizmat qilishga tayyorman. Rahmatli turmush o'rtog'im, O'zbekiston xalq yozuvchisi Tog'ay Murod haqidagi yodnomani yozib bitirish, yangi hikoyalar qoralash, jahon adabiyotidan tarjimalar qilishni rejalashtirib qo'nganman. Bu yilgi bahor quvonchlarini ko'nglimga yorug' niyat, ezgu maqsad urug'larini sochdi va vaqti-soati kelib, ular o'z samarasini beradi.



Dillfuza SHOMALIKOVA,
"Guncha" jurnali bosh muharriri,
"Shuhrat" medali sohibasi:

– Yangi O'zbekistonda kitobxonlik madaniyatini, jumladan, bolalar kitobxonligini keng targ'ib etishga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilayotgani bejiz emas. Shvetsiyalik atqili bolalar yozuvchisi Astrid Lindgren: "Erta dunyoning qanday bo'lishi hozir kitob o'qishni o'rganayotgan kichiklarga bog'liq. Shuning uchun ham bolalarga kitob be-

rish kerak", deganda naqadar haq edi. Sir emas, bugungi kun bolalari kompyuter o'yinlari, uyali telefonlarga ko'proq qiziqadi – bularning barchasi, mayli, balki bir ermakdir. Ammo ularning beg'ubor olamini boyitishda kitobning o'rni beqiyos.

Bola kitob, jumlar bilan tanho qolsa, qalbining tub-tubida yorqin, unutilmas taassurotlar uyg'onadi. Bolalarning beg'ubor olamini qanday mo'jizalar bilan boyitish esa biz katta yoshdagilarga, xususan, bolalar adabiyoti ijodkorlariga bog'liq. Shu bois, jurnalimizning har bir sonini nashrga tayyorlash jarayonida dunyoni bola qalbi bilan idrok etishga urinamiz. Ularni chinakam vatanparvar, xalqparvar insonlar bo'lib ulg'ayishini istaymiz. Shu ma'noda, menga berilgan bu yuksak mukofotni jurnalimiz ijodiy jamoasining mehnatlariga ham berilgan baho deb bilaman. Bunday yuksak e'tibor va ishonch zimmamizga yanada ulkan mas'uliyat yuklaydi.

GO'ZALLIK VA NAZOKAT TIMSOLI



Alisher NAVOIY

Vasfiya

**Bu majlis ichra hozir o'n dilorum,
Bari ham sarv qomat, ham gulandom:**

**Kelib har qaysi bir fazl ichra mohir,
Mahorat shevasi har birda zohir.**

**Biri – ash'or bahri ichra g'avvos,
Biri – advor davri ichra raqqos.**

**Biri – mantiq rusumida raqamkash,
Biri – hay'at ruqumig'a qalamkash.**

**Birining shevasi – ilmi haqoyiq,
Balog'atda biri aytib daqoyiq.**

**Biri – tarixda so'z aylab fasona,
Biri – hikmat fani ichra yagona.**

**Hisob ichra birining zihni borib,
Muammoda birisi ot chiqorib.**

**Bu fanlarda bular bir-birdan ahsan
Yuz ul fanlik aro har qaysi akfan.**

**Dilorum-u Dilorom-yu Diloso,
Gulandomu Sumanbo'y-u Sumanso,**

**Parichehr-u Parizod-u Parivash,
Paripaykar – zihni o'n ismi dilkash.**

ZULFIYAXONIM QIZLARI

Kuni kecha o'zining ibratli faoliyati va erishgan yutuqlari bilan yoshlarga o'rnak bo'lib kelayotgan qizlarning 28 nafari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qaroriga binoan Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti bilan taqdirlandi.

Bu yuksak mukofotga sazovor bo'lgan qizlarimiz ilm-fan, adabiyot, san'at, madaniyat, sport, ishlab chiqarish va boshqa turli sohalarda muvaffaqiyatga erishib, Vatanimiz ravnaqi yo'lida zamonaviy bilim va malakalarini, kuch-g'ayrat va shijoatini, shuningdek, ma'naviy-intellektual salohiyatlarini namoyon etmoqdalar. Ana shunday qalbi uyg'oq yoshlar orasida Samarqand viloyati Toyloq tumani "Qo'shchinor" gazetasi muxbiri Nargiza Yunusova ham bor.

– Hozir juda hayajondaman. Ochig'i kutmagan edim. Xabarni eshitishim bilan onamga qo'ng'iroq qildim. Onajoningning sen erishgan yutuqlardan quvonib yig'lashi boshqacha bo'lar ekan. Men ana shunday qizlarini mukofotlaydigan diyorda tug'ilganimdan faxrlanaman. O'zbek ayolining nurli timsoli – Zulfiyaxonimning izdoshi bo'lish baxtiga musharraf bo'lganimdan benihoya xursandman. Mana, to'rt yildirki, "Qo'shchinor" gazetasida faoliyat yuritaman. Jurnalist sifatida xalq orasida yurib, xotin-qizlar uchun yaratilayotgan imkoniyatlar

ko'lamining kengligiga guvoh bo'lyapman. Men ulug' shoirimiz nomidagi davlat mukofotiga munosib deb topilganimni ulkan sharaf, zimmamdagi burch va mas'uliyat sifatida qabul qilaman, – deydi Nargiza Yunusova.

Ha, oilalarimiz va jamiyatimizning jon tomiri bo'lgan xotin-qizlarga e'tibor ko'satish, ularni e'zozlash azaliy qadriyatlarimizdan biri bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi. Zero, Prezidentimiz aytganlaridagi, "har qanday jamiyat va davlatning qay darajada xalqparvar hamda adolatlari ekani uning xotin-qizlarga mu-

nosabati va g'amxo'rliqi bilan belgilanadi".

– "Zulfiyaxonim qizlari" degan gapni eshitish va shu qizlar qatorida sening noming ham tilga olinishi ko'ngilga iftixor bag'ishlaydi. "Siz shu mukofotga loyiq ko'rildingiz", deygandanda ko'zlarimdan yosh chiqib ketdi. Katta ishlar hali oldinda. Bu mukofot meni yanada faol bo'lishga ilhomlantirishi shubhasiz. Xo'jaobodagi bir mahalla yoshlarining yetakchisiman. Men bajargan vazifa balki oddiy bir ishdir, lekin shuni bilamanki, bu mamlakatda mehnat qilgan, albatta, qadr topadi. Meni

Zulfiya nomidagi Davlat mukofotiga munosib deb bilgan barcha-barchadan minnatdorman, – dedi Andijon viloyati Xo'jaobod tumani "Gara guri" MFY yoshlar yetakchisi Husniyabonu Jonibekova.

Ha, mukofot sohibalari qat'iy hayotiy tamoyilga ega. Yangi O'zbekistonning har tomonlama yetuk avlodi, kelajakning bunyodkorlaridir. Zulfiyaxonim qizlari davlat rahbarining yuksak e'tirofi tufayli o'z maqsadlari yo'lida yanada ildamlashi tayin. Biz esa, ularning ezgu niyatlari o'zlariga yo'ldosh bo'lishini istaymiz.

QALBI UYG'OQ QIZLAR

TADBIRKOR AYOL



GULMISIZ, RAYHONMISIZ?..

Yozuvchi Surayyo Zoyirning "Gullar tirikchilik uchun yashamas, gullar tiriklik uchun yashaydi", degan satrlari bor. Har gal gul bozoridan o'tganimda shu satrlar beixtiyor tilimda aylanadi. Darhaqiqat, tirikchilik uchun bo'lsa-da, rastalarga olib chiqilgan gul, chechaklarda dilbar hayot ramzi mujassam. Darvoqe, gul bozori... Hamisha qizg'in, hamisha xaridorgir... Axir, biror bayram yo'qki, gulsiz o'tsa. Gullar bayramlarimizning go'zal timsoli, ko'ngildan ko'ngilga yetib borguvchi eng rangin armug'onimizdir.

Saodatxon aya Usmonovaning yuragini yashnatgan ham, uni el-u yurtga tanitgan ham gul. Gullar ayaga baxt, omad va shuhrat keltirdi, davlatmand qildi. Suhbatimiz chog'ida u 2023-yildagi daromadini 5 milliard 800 million so'm, deb aytdi. Bu hazilakam ko'rsatkich emas. Ishonib-ishonmay qayta so'radim.

– Gul ekib, gul sota boshlaganimga qirq yildan oshdi, qizim, – deya gap boshladi Saodatxon aya. – Eshitganingiz chin. Bu yilgi daromadim men sizga aytgan summamni ko'rsatdi. Faoliyatimni 1999-yildan boshlaganman. 2003-yilga kelib xususiyashtirdim. 2006-yilda birinchi bor issiqxonaga qurdirib, gul ko'chatlari qadadim. "Namangan gul-

lari" MCHJni ochdim. 2014-yilda viloyat hokimi bir gektar yer ajratib berdi. Shu yerning 50 sotixiga issiqxonaga qurib, mavsumiy gullarning ko'chatlaridan ekkdik. Ishimiz rivojlandi. Men yaxshi ko'rgan gullar menga mo'may daromad keltira boshladi. 2017-yilda menga berilgan joyda bog' barpo etiladigan bo'ldi. Hokimiyat olsa, o'miga yer berisharmikin, deb o'ylagandim. Yo'q, boshqa joydan yana bir gektar qo'shib berishdi. Baraka topishsin, tuprog'i juda unumdor ekan. Gullarimni qo'shni respublikalarga ham eksport qila boshladim. Bu ikki gektardan tashqari, aeroport hududida ham 50 sotix yerga har xil turdagi mavsumiy gullar ekkamiz.

Saodatxon aya Usmonova Namangan viloyati Davlatobod tumani-da yashaydi. Uch o'g'il, bir qizning onasi, 9 nafar nabiraning mehribon buvionisi. U farzandlarini gulday, gullarini esa farzandiday yaxshi ko'radi. "Siz ishonasizmi, yo'qmi, men o'zimgin gullarimni bolamni taniganday taniman. Bo'lmasa qanchadan qancha gulchilar bor. Bir men emas gul ekayotgan. Nimagadir shunday. Qayerda gul ko'rsam, ko'zimga ishiq ko'rinsa, surishtiraman. Bilsam o'zimga tegishli bo'lib chiqadi. Hatto har bir gulimning xarakterigacha bilaman", deydi.

Bugun respublikamizda "Namangan gullari" kirib bormagan xonodan bo'lmasa kerak. Qirg'iziston, Qozog'iston, Tojikiston respublikalarida ham uning gullari sotilmoqda. Birgina "Kermiya" gulining urug'idan ikki yarim million dona ekib, hosil kutayotgan onaxonni alqamay bo'ladi. U ekan gul urug'lari unmad deganda 60-70 foizga ko'klaydi.

Saodatxon Usmonova o'ttizdan ziyod ayolni doimiy ish bilan ta'minladi. Yigirma ikki nafar shogird tayyorladi.

Bundan tashqari, ish ko'paygan vaqtda ellikka yaqin mavsumiy ishchi yollaydi. Bu degani yuzlab odamlarning ro'zgoriga baraka olib kirishda uning hissasi bor.

Ayol boshi bilan katta ishlarga qo'l urgan Saodatxon aya gulga havasi ortidan o'zi ko'rishni orzu qilgan mamlakatlarga safarlarga chiqdi, haj ziyoratlarini amalga oshirdi. 2018-yilda Vatanimiz obodligi va yurt farovonligi yo'lida qilgan xizmatlari evaziga "Do'stlik" ordeni bilan taqdirlandi. Bu e'zozga, bu e'tirofga tabiatning insoniyatga taqdim etgan inja tuhfasini – nozik chechaklarga qo'ngan mehri tufayli sazovor bo'ldi. Janubiy Koreya Respublikasiga safari nihoyasida bir jomadon gulli vatanga olib kelish uchun tuni bilan ildiz yuvganini aytganiga ayanning mehri chuqur muhabbatga aylanganini his etdim.

Gulchi onaxon haqida hali yana yozamiz, chunki uning qilgan ishlari gulzoridagi gullari sonicha beadog'. Bayramli kunlarimiz esa, "Namangan gullari"ning ifori bilan to'lsin!

Muhayyo RUSTAM
qizi



AYOL JASORATI

MATONAT MALIKALARI

Bu ayollar taqdir turtkisini tuhfa deb bildilar. Ularning hayotiga nazar solsangiz, taqdirning og'ir sinovlariga mardona bardosh berib, chinakam mo'jizalar yaratgan metinday mustahkam irodali, nekbin va oqila ayol siymosi ko'z o'ngingizda namoyon bo'ladi. Beixtiyor o'zingizning arzimas qiyinchiliklardan norizo bo'lib, umidsizlikka berilgan kezlaringiz yodingizga tushib, shunchalar nodon bo'lganingizdan uyalib ketasiz...

QAMASHILIK QAYSAR QIZ



– Men yoshligimdan juda qaysar edim. Hech kimning qo'liga qarab qol-gim kelmasdi. O'qimoqchi bo'lganimda otam ruxsat bermadi. Baribir fikrimda qat'iy turib, Toshkentga keldim, – deydi Qamashi tumanidagi "Dilfuza" o'quv markazi rahbari, "Jasorat" medali sohibasi Dilfuza Bo'ronova. – Ijarada yashab, "Mashhura" o'quv markazida chevarlikka o'qidim. O'quv markazi rahbari Masha'ra Yusupova menga ko'p yaxshiliklar qildi. Tez orada tikuvchilik sirlarini o'zlashtirdim. Ich-ichimdan imkoniyati cheklangan insonlar haqida qayg'urar edim. "Men-ku yo'limni topdim, lekin ular nima qiladi", degan o'y tinchlik bermasdi. Ikki yildan so'ng o'zim tug'ilgan Qamashi tumaniga qaytib, o'quv markazi ochdim. Ikki yilda uch yuz nafar nogironligi bor ayollarga tikuvchilikdan saboq berdim. Mehnatlarim yuzaga chiqdi. E'tiborga tushdim.

Dilfuza Bo'ronova o'ziga o'zi ish topib olaveradiganlar xilidan. Tinib-tinchimaydi. Qamashida qo'l gul chevar sifatida nom qozongan. Tumandagi ko'plab tashkilotlar, kasalxonalariga ko'rpato'shak, yostiqlik va ish kiyimlari tikib beradi. U davlatimiz rahbarining tadbirkorlarga har tomonlama imkoniyatlar yaratib berayotganidan foydalanib, ish ko'lamini kengaytirdi – uyida xususiy bog'cha ham ochdi. Hozir bu yerda 25 nafar bolani tarbiyalayapti. Xolisona aytganda, savob ilinjida shu ishga qo'l urgan edi. Shu maqsadda bog'cha to'lovini boshqalariga nisbatan 30-40 ming so'm arzonlashtirib qo'ydi, mahalladoshlariga qayishdi.

Aslida, Dilfuza opaning 2007-yili 2 million so'm kredit olib, tadbirkorlikka qo'l urganining o'zi katta jasorat edi. Chunki qarzni to'lash uchun chumoliday tinim bilmay harakat qildi, buyurtmalarni o'z vaqtida bajarish uchun tularni tongga uladi. Haftasiga ikki yuz, uch yuzta lab ko'rpato'shak tikdi.

Xo'p, tadbirkorlik qilgan bo'lsa qilibdi-da, dersiz. Lekin gap boshqa yoqda. Qamashining qaysari Dilfuza Bo'ronova oddiygina, to'qqiz farzandli oilada olti o'g'ildan keyin dunyoga kelgan. Hamshiraning emlash jarayonidagi ehtiyotsizligi sabab o'ng oyog'i ishlamay qolganida u sakkiz yoshli qizaloq edi. Ota-onasi o'n yillab davolatishdi.

Afsuski, oyog'i tuzalmadi, hassaga tayandi, biroq nogironlikni tan olmadi. Otasi boshqalarning "sen nogironsan" deb bolasining yuziga solishi va qizining ko'ngli vayron bo'lishini istamay, uni maktabga yubormadi. Shu bois poytaxtga o'qishga borganida u na harf tanirdi, na sonni songa qo'sha olardi. O'quv markazidagilar unga alohida e'tibor qarab, darslarni, libos bichimlarni yaxshi o'zlashtirib olishi uchun qayta-qayta tushuntirishdi, qizining intilishini qadrlashdi.

Dilfuza opa Qamashi tumani pensiya jamg'armasi rahbari bo'lib ishlab, ayni paytda, o'zi bunyod etgan "Saxovat" uyini boshqarayotgan Saodat Hamidovadan ham bir umr minnatdor ekanligini aytadi. Shu mehribon ayolning e'tibori va daldasi, ko'rsatgan yo'l-yo'riqlari hayotda o'z o'rini topishida ko'mak berganini e'tirof etdi. Saodat opa uning o'z jufini topishiga ham sababchi bo'ldi. To'yni ham o'zi o'tkazib berdi. Dilfuza opa turmush o'rtog'i, ikkinchi guruh nogironi Kamol Dovulov bilan baxtli hayot kechirmoqda. Ayni paytda farzandlari Umidjon 13 yoshga to'ldi.

– Biz nogiron emasimiz, – deydi Dilfuza opa. – Aravamizni o'zimiz tortaymiz. Ba'zan soppa-sog'larning davlat ko'magidan umidvor bo'lib, nolishlarini eshimsam, tavba deyman. Men 44 yildan beri qo'ltiqtaoyqodaman. Shu qo'ltiqtaoyqo' qo'llayotgan ekan, demak, imkonim bor, imkoniyatim cheklanmagan.

Dilfuza Bo'ronova Qamashi tumanidagi Berdoli qishlog'ida guldai umr kechiryapti. 2019-yili tuman hokimligi ijarada yashagan uyini uning nomiga xususiy lashtirib berdi. O'shangacha ijara yashab aslo qiynaldim, demadi. Biron-bir tashvishingiz bormi, degan savolimga Dilfuza opa shunday javob berdi:

– Qo'shni mahallada Saida va Sayyora ismli opa-singil yashaydi. Ota-onasi dunyodan o'tib ketishgan. Akasi shaharga ko'chib ketgan, deysihadi. Ikkalasining ham oyoq-qo'li ishlamaydi. Mahalladan qarovchi ajratilgan. Hafta-o'n kunda ularni ko'rgani borib turaman. Boyaqshilarning yurish tugul, o'tirishga ham qurbi kelmaydi. Lekin ikkalasi ham doim kulib turadi. Hayotdan nolimaydi. Ularning ko'nglini ko'tarishga urinaman, lekin ahvolini ko'rib, ichimdan ezilaman...

Nazarimda, Dilfuza Bo'ronovaning bu gapi orqali uning siyrati haqida to'lraq tasavvur hosil qilish mumkin...

SURXONNING SUYUMLI KELINI

Halima Qoraboyeva Oltiariq tumanidagi "Tinchlik" shaharchasida tug'ilgan. U to'qqiz yoshida kutilmaganda poyezd tagida qolib, ikki oyog'idan ajralgan. Baxtga qarshi, kesilgan suyak qaytib o'sib, yana murakkab jarrohlik amaliyotini boshidan kechirishga majbur bo'lgan. Xullas, uzoq vaqt kasalxonadan chiqmagan...

Mehr-ooqibatda benazir ota-onasi,

akalari Halimaning hayotga qaytishida tirgak bo'ldilar. Uni yer-u ko'kka ishonmay voyaga yetkazishdi. Ikki kilometr uzoqdagi maktabga navbatma-navbat yetkasida opichlab olib borib o'qitishdi. U maktabni oltin medal bilan tamomlab, Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida tahsil oldi. Oliy o'quv yurtida ham eng yaxshi talaba bo'ldi. Sun'iy oyoqlarda universitetga qatnadi. Oliy ma'lumotli bo'lgach, otasi olib bergan mashinada ishga qatnab, sidqiildan mehnat qildi.

Taqdir ekan, bir gal protezini almashtirish maqsadida Toshkentga kelganida surxondaryolik Qulmat ismli yigit bilan tanishib qoldi. Bu tanishuv tez orada muhabbatga aylanib, Halimaxon Denov tumanidagi "Ostona" mahallasiga kelin bo'lib tushdi.

– Qaynotam mehribon inson edi. Bir oy o'tar-o'tmas, meni kasb-hunar kollejiga ishga joylab qo'ydi. Qaynotam, qaynotalarim, ovsinlarim yordamini ayamadi, – deydi Halima opa.

Faqat bugina emas. Halima opa onasidan o'rgangan hunarini ham davom ettirdi. 25 yildan beri tikuvchilik qilib kelmoqda. Baxtsiz tasodif tufayli bir qo'l, bir oyog'idan ayriqlan Qulmat aka bilan qariyb qirq yildan buyon bir-biriga tirgak bo'lib yashab, ikki qiz, bir o'g'ini voyaga yetkazishdi. Ularni oliy o'quv yurtlarida o'qitib, uyli-joyli qilishdi. Kattagina hovlida ekin ekib, qoramol boqishadi. Muhimi, ayrim to'rt muchi sog'lardan ko'ra yaxshi yashashmoqda.



Birinchi guruh nogironi Halima Qoraboyeva yon-atrofdagi qizlarga chevarlikni o'rgatib, yuzlab shogirdlar tayyorladi. Zamon bilan hamnafas yashadi, qanday libos urfga kirsam, o'rgandi, tikdi. Hozir Denovda uning barmoqlari teggan kiyim, parda yoki dasturxon kirmagan xonadon yo'q, desayam bo'ladi. Opa hech qachon nogironman deb o'ksinmadi, zorlanmadi. Doimo hayotdan zavqlanib yashadi. Umringing biror kunini bekor o'tkazmadi.

Halima opa yaqinda oltmish birga to'ldi. Hozir farzandlari, kelin-kuyovlari, bir etak nabiralarning izzat-ikromida. Lekin hamon qo'lidan igna-ip tushmaydi. Turmush o'rtog'i bilan muborak Haj ziyoratiga borish orzusi bilan yashayapti. Ularning bu ezgu niyati ham ushalihsiga ishonamiz.

Men ushu maqolani tayyorlash jarayonida o'nlab ayollar bilan suhbatlashdim. Shu asnoda mashhur fransuz adibi Onore de Balzak aytganidek, inson irodasi uning iste'dodidan qadrliroq ekaniga amin bo'ldim. Zero, odam aynan po'latdek mustahkam irodasi tufayli turli qiyinchiliklar, tushkunlik va umidsizlik changalidan xalos bo'lishi mumkin. Qahramonlarimiz ana shunday matonatli ayollardir. Ularning mashaqqat va imtihonlar silsilasida kechayotgan sharafli hayoti har birimiz uchun ibrat bo'lgulikdir.

Nasib etsa, bu mavzudagi suhbatlarimizni hali davom ettiramiz.

NOLIGANGA NON TOPILMAS



Karomat Parmonova Samarqand viloyatining Paxtachi tumanidagi To'g'olon qishlog'ida yashaydi. Taqdir taqozosi bilan qo'l-oyoqlarida nuqson bilan tug'ilgan, birinchi guruh nogironi.

Shunga qaramay, u imtiyozli kredit asosida Ziyovuddin qo'rg'onidan yangi xonadon sotib oldi. Hokimiyat vakillari "uy muborak"ka bitta tikuv mashinasi sovg'a qilishdi. Ro'zg'oridan orttirib, uying kreditini to'lashning o'zi bo'lmaydi. Yaxshiyam, Karomatxonning qo'lidagi hunari bor ekan, so'zana va milliy qo'g'irchoqlar tikishga kirishdi.

Kashali mahsulotlar nisbatan qimmatroq sotilsa-da, ularni tayyorlash uchun ancha vaqt va mehnat talab etiladi. Hatto, bir so'znanani uch yil deganda tikib bitkazdi. Nima bo'lganda ham bu hunari unga yaxshigina daromad keltirdi. Zero, Karomatxon so'zana tikanda ochiladi, dili yayraydi. U milliy qo'g'irchoqlar tikishni ham yo'lga qo'ydi. Tumandagi maktab va bog'chalar uning asosiy buyurtmachilariga aylandi. Ayni paytda u an'anaviy hunarmandchilik ko'rgazmalarida o'zi tikkan kashta, quroq va qo'g'irchoqlari bilan muntazam ishtirok etyapti.

– Onam maktabda mehnat fanidan dars berardi, – deydi u. – Qo'l ishini onamdan o'rganganman. Otam dunyodan o'tgan, oilada besh farzand edik. Onamga yordam bergim kelgani uchun ham hunarli bo'lishga jiddu jahd bilan kirishgan bo'lsam kerak. Bir oyda yo'q deganda 20-30 ta qo'g'irchoq tikaman.

Darvoqe, Karomat do'st-yorlari, qarindosh-urug'lariga chiroyli sumkachalar ham tikib beradi. Yigirmaga yaqin shogirdi bor. Turmush o'rtog'i Alisher Bobonov bilan har doim hamfikr. Tamani yoqtirmaydi, boqimandalikdan or qiladi. "Odam jismoniy zaiflikdan emas, qalb ojizligidan uyalishi kerak", deydi va o'zi him shunga amal qiladi.

Karomat Parmonova ayni paytda O'zbekiston nogironlar jamiyatining Paxtachi tumani bo'linmasini ham boshqarib kelmoqda.

Muhayyo PIRNAFASOVA



AYOL SURATIGA CHIZGILAR

Boshlanishi 1-sahifada.

U o'z davrida qudratli saltanatning siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotida faol ishtirok etadigan, saltanat ishlarida buyuk sohibqiron bobomizning dono maslahatgo'yi bo'lgan bag'rikeng, donishmand va oqila ayol sifatida nom qozongan.

Amir Temur saroyida joriy qilingan tartibga ko'ra, chet ellik elchilarni qabul qilish chog'ida hukmdorning xotinlari ham qatnashganlar. Ispaniyalik mashhur tarixchi Gonsales de Klavixo ham ana shunday tantanali marosimda Amir Temurning yonida Saroy Mulkxonim boshliq ayollar ham ishtirok etgani haqida yozib qoldirgan.

Qadimdan xalqimizda ayollar or-nomus timsoli sanalgan. Hech kim o'z onasi, ayoli yoki singlisini og'iz to'ldirib maqtamagan. Ehtimol, Alisher Navoiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Muhammad Xorazmiy, Mahmud Zamaxshariy kabi ulug' mutafakkirlarning onalari haqida bizgacha juda kam ma'lumot yetib kelganining boisi ham shundadir.

Ammo ularning volidolari yuksak fazilatlar va ilm-u odob sohibasi bo'lishganiga shak-shubha yo'q. Aks holda, xalqimiz orasidan bu kabi daholar yetishib chiqmasdi. Alisher Navoiyning "Nasoyim ul-muhabbat" asarida yuksak kamolot sohiblari orasida bir qancha ayollarning nomlari ham tilga olingan. Xullas, biz o'zbek ayollarining ichki va tashqi qiyofasini ularning millat tarbiyasi yo'lida giyohli xizmatlari orqali yaxshi tanimimiz. Bu haqda o'ylaganimizda ko'z o'ngimizda o'zligini anglagan, Haqni tanigan, g'ururli, jasur, aql-zakovatda tengsiz zukko Ayol siymosi namoyon bo'ladi.

Ayol – millat tarbiyachisi. Qaysi ijodkorning bolalik xotiralari yoxud tarjimai holini varaqlamaylik, albat-ta, vaqtida onasining ertaklar o'qib bergani, xalq qo'shiqlarini maroq bilan xirgoyi qilgani, Alisher Navoiy va Mashrabning g'azallarini yoddan bilganiga guvoh bo'lamiz. Zotan, jismonan, ma'nan, ruhan yetuk farzandlar tarbiyalash – ayolning eng ulkan, olijanob vazifasi hisoblanadi.

Ajdodlarimiz hech bir zamonada savodsiz, omi bo'lishmagan. Biroq sobiq Ittifoq davrida o'zbek ayolining qoloqligi, uning oila ishi-ga o'ralashib qolgan, jamiyatdagi muammolarga aqli yetmasligi, zamonaviy ilmlardan bexabarligi yoki oilada huquqsizligi haqida asossiz bong urildi. Shu bahona bilan ayollarni "ochiqqa chiqarish"ga zo'r berildi. Biroq sho'rolar nozik jins vakillarini o'qitish, zavod, fabrikalarga ishga joylashtirish orqali ularni og'ir mehnatga jalb qilishni ko'zlagan edi. Oqibatda ayollar azondan kechgacha dalada tinim bilmay ishlaydigan, korxonalarda beli bukchayib og'ir yumushlarni bajaradigan ishchi kuchiga aylantirildi. Shu maqsadda traktor va mashina ruliga o'tirgan, qoramoy-ga belanib mehnat qilgan xotin-qizlar qahramon darajasiga olib chiqildi. O'sha davrlarda tug'ruq ta'ili atigi qirq kundan iborat bo'lgani, sho'rlik ayollar beshikdagi bolasi bilan paxta dalasida ter to'kishga majbur etilgani, minglab norasi-

da go'daklar paxtazorlarda voyaga yetgani ham achchiq haqiqat. Sobiq tuzumga ko'proq "qora ish-chi"lar kerak edi. Shu bois ayollar ko'proq bola tug'ishga da'vat etilib, serfarzand onalar "Qahramon ona" unvoni bilan siylandi. Buning oqibatida qanchadan qancha ayollar va norasida go'daklar nobud bo'lgani, ruhan va jismonan majruh bo'lib qolgani ham bor gap.

Yaxshiki, o'sha ayanchli kunlar allaqachon o'tmishga aylandi. Bugun jamiyatda ayolga, onaga munosabat, e'tibor butunlay o'zgar-gan. Lekin hali bu borada ham ayrim muammolar saqlanib qola-yotganidan ko'z yumib bo'lmaydi. Ba'zi ayollarning o'z o'rini, qad-rini, vazifasini bilmasligi ortidan oilada muvozanat buzilishi kuza-tilmog'da. Aksariyat hollarda, ayol oilada barcha mas'uliyatni o'z zim-masiga olayapti. Erining mas'uli-yatsizligi, tanballigi oqibatida far-zandlarini boqish, uy-joyli qilish taraddudida chet ellarga ishlashga ketayotganlar onalar ham talaygi-na. Ayol nafaqat o'z huquqini, balki qadr-qimmatini, zimmasidagi vazifa-sini ham bilishi zarur. U birinchi navbatda millatning kelajagi uchun mas'uldur. Bu vazifa – ayol uchun kamsitish emas, balki sharafdur.

Xalqimizda: "Qush uyasida ko'rganini qiladi", degan naql bor. Bola nafaqat oilasida ko'rganidan, balki tomirida oqayotgan qoni va irsiyatidan ham "tarbiya oladi", shaxs sifatida shakllanadi. Bugun butun dunyoda ayollar-ning jamiyatdagi o'rni, ularning ijtimoiy hayotdagi mavqei borasi-da turli baqs-munozaralar davom etmoqda. Ularning ta'lim olishi va boshqa haq-huquqlarini ta'minlash haqida qayg'urilyapti. Shu o'rinda bir narsani ta'kidlash lozimki, ayol-ni tarbiyalash, uning maqomi va hurmatini joyiga qo'yish va zarur sharoitlar yaratib berish orqali millatni tarbiyalash mumkin. Atqo-li ma'rifatparvar Abdurauf Fitrat "Oila" kitobida: "Dunyoviy ishlarni bajarishda erkak va ayol o'rtasida umuman farq bo'lmaydi. Va agar-da ona sog'liqni saqlash va bolalar tarbiyasidan ogoh bo'lmasa, bu qoidalarni bajara olmaydi. Bu johillik va nodonlikning natijasida mamlakatimiz bolalarining yarmi-dan ko'prog'i nobud bo'ladi, qolganlari esa axloq yomon va ishyoqmas bo'ladi", deya ta'kid-lagani bejiz emas...

Chindan ham, bizning momo-larimiz ulug' ayollar edi. Xo'sh, bugungi ayollarimizning ma'naviy qiyofasi qanday? Nahotki, ha-shamga o'chlik, gap-gashtak, to'y-tantanalar, sarpo-suruq yig'ish poy-gasi ular hayotining mazmuniga aylanib qolgan bo'lsa? Yoki bolasi-ning tarbiyasi bilan shug'ullanish o'rni-ga erta-yu kech ijtimoiy tarmoqlardan bo'shamaydigan, o'ziga oro berishdan charchamaydigan ayol-lar bilan maqtanamizmi?

Xullas, o'ylantiradigan savol-lar bisyor. Nima bo'lganda ham, barcha xotin-qizlar bepul ta'lim bilan qamrab olingan, davlat va jamiyat ularga juda katta umid va ishonch bilan qarayotgan hozirgi davrda har bir ayolning ma'naviy qiyofasi to'kis va mukammal bo'lishi kerak.

Muyassar IBROHIMOVA

XUSHXABAR



Nodirbek Abdusattorov muddatidan avval Praga turniri g'olibligiga erishdi

Chexiya poytaxti Pragada o'tkazilayotgan "Prague International Chess Festival" turnirining yakunlanishiga bir tur qolganda hamyurtimiz Nodirbek Abdusattorov g'oliblikka erishdi.

Musobaqaning 8-turida turnirdagi asosiy taqibchisi eronlik Parham Mag-sudluni mag'lub etgan Abdusattorov 6 ochkoga ega bo'lgan holda "Masters" guruhida ishtirok etayotgan 8 nafar shaxmatingning bironasiga da'vogarlik imkoniyatini qoldirdi.

Praga musobaqasida qatnashayot-gan shaxmatchilardan Tai Dai Van Nguyen, Parham Magsudlu va Ramesh-babu Pragannandxaa 4,5 ochko bilan 2 va 3-o'rinlarni egallash uchun kurash olib boradi. Shuningdek, Abdusattorov-dan keyingi pog'onalardan joy olishga 4 ochkoli David Navarra, Richard Rapport hamda Dommaraju Gukesh ham yaqin kelib turibdi.

Oltinchi bor o'tayotgan mazkur turnirning g'olibligini naqd qilgan Nodir-bek Abdusattorov 9-turda qora dona-larda Richard Rapport bilan kuch sinq-shadi. Mazkur o'yin hamyurtimizning Praga musobaqasidagi natijasiga ta'sir

ko'rsatmasa-da, xalqaro reytingdagi o'rni uchun muhim bahs hisoblanadi.

Aytilish lozim, Abdusattorov poyoniga yetib borayotgan "Prague International Chess Festival" musobaqasining oltin-chi g'olibi bo'ldi.

Bundan tashqari, Praga turniridagi muvaffaqiyat iste'dodli shaxmatchi-mizni Xalqaro shaxmat federatsiyasi-dagi o'rni yanada yaxshilashiga, norasmiy shaxmat reytingida esa amaldagi jahon chempioni Din Lijenni ortda qoldirdi va 2765,5 reyting bilan 4-o'ringa joylashdi.

T.R.O'ZIEV, O'ZA



SURUR

EL KO'NGLINI KO'TARGAN KO'PRIK

Yaqinda muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan Amudaryo ustida barpo etilgan zamonaviy, muhtasham ko'prikning ochilishi ana shu armonlarning ro'yobi sifatida yurtimiz taraqqiyoti zarvaraqariga oltin harflar bilan yoziladigan tarixiy voqea bo'ldi.

Azaldan bir el, bir xalq bo'lgan Orolbo'yi odamlarini asov Amudaryo doimo ikkiga ajratib turgan. Biroq ne-ne hukmdorlar, ne-ne saltanat sohiblari ham ikki qirg'oqni birlashtirishning udasidan chiqolmaganlar. Shu bois o'zaro bordi-keldi, savdo-sotiq qilishda mushkulotlar bisyor edi. Odamlar goh sol va qayqlarda ikki qirg'oq aro suzib o'tishgan. Ko'pincha pishqirgan asov to'liqlar, gohida vohada "sang", "degish" deb atalmish muz yorilishlari qiyinchilik va aziyatlar keltirib chiqaravergan. Omonatgina qurilgan ponton ko'priklar ham el ko'riga yaramay qolgan damlar ko'p bo'lgan.

Tantanal marosimda Prezidentimiz mazkur ko'prik qurilishining ahamiyati haqida gapirar ekan, daryodan o'tish xalqimiz uchun qancha qiyinchiliklar tug'dirganini qayd etib: "Buni paromda bir marta daryodan o'tib ko'rgan odam his qiladi", deb ta'kidladi. Davlat rahbari bu bilan Xorazm va Qoraqalpog'iston aholining ko'p yillik tashvishini aniq-tiniq ifodalab berdi.

Chindan ham, eldoshlarimiz bu muammolarning barham topishini uzoq vaqt intizorlik bilan kutishgan edi. Mana, nihoyat ularning asriy orzusi ushaldi! Amudaryo tumanida qisqa muddatlarida qurib bitkazilgan muhtasham ko'prik Yangi O'zbekiston rahbarining mehnatkash xalqimizga ko'klam tuhfi bo'ldi, desak, aslo mubolag'a bo'lmaydi. Shu satrlarni bitarkanman, ko'prik orzusida yashagan eldoshlarimizning fojiali, iztiribga to'la kechmishi yodimga tushdi...

Biz o'sib-ulg'aygan qishloq bilan Qoraqalpog'istonning Tor'tko'l shahrini dalivash daryo ajratib turadi. Bolaligimizda tomga chiqib, narigi sohildagi shaharning gavjum hayotini havas-la tomosha qilib o'tirar edik. Bu shaharda aksariyat qishloqdoshlarimizning qarindosh-urug'lar istiqomati qilishardi. To'y-marakada bordi-keldi qilishning turgan-bitgani zahmat edi.

O'shanda 7-sinfda o'qirdik. Qish chillasining qaqshatqich ayozida Sayyora ismli maktab-doshimizning ota-onasi, ukalari daryoga cho'kib ketgani haqida shumxabar tarqaldi. Ma'lum bo'lishicha, ular Tor'tko'l'dagi qarindoshlarinikiga to'yga o'tlanishgan. Ko'prik yo'qligi sababli, mu-

zlagan Amudaryodan mashinada o'tishga qaror qilishgan. Biroq daryoning o'rtasiga borganida muz yorilib, ularning barchasi suvga g'arq bo'lishgan...

Bunday qayg'uli fojia va kul-fatlar har yili takror-takror sodir bo'lib turardi. Chunki odamgar-chilikni dasturlamal bilgan qish-loqdoshlarimiz narigi sohildagi yaqinlarining to'y-marakalariga borish uchun hayotini garovga



qo'yib muz qoplagan daryodan o'tishga urinardi. Kelin olib kelayotgan kattakon avtobusni daryo o'z komiga tortib ketgani haqidagi xabar bizning bola qalbimizni larzaga solgani, vahima girdobida uzoq vaqt sohilga bo'yilashga ham yuragimiz betlamay yurgani hamon esmda. O'shanda ulkan sho'rolar davlatining ixchamgina bitta ko'prik qurishga qudrati yet-masligidan o'ksinib qo'yardik.

Yaqin yillargacha Xorazm viloyati bilan Qoraqalpog'iston Respublikasini faqatgina "Tuyamo'yin" suv ombori va Taxiatiast GRESiga qurilgan to'g'on bog'lab turardi. Ularning ikkovi ham markazdan ancha olisda bo'lib, u yergacha yuzlab chaqirim yo'l bosishga to'g'ri kelardi. To'g'ri, keyingi vaqtlarda Xorazm viloyatining Urganch va Xonqa tumanlari hamda Qoraqalpog'istonning Qipchoq ovulida ponton ko'priklar qurilib, aholiga xizmat qila boshladi. Biroq omonatgina barpo etilgan bunday ko'priklar qishda ulkan muz bo'laklarining kelib urilishi yoki yozda quturgan asov to'liqlar

bois o'tib bo'lmaydigan darajada rasvosi chiqib qolardi.

Endilikda Amudaryo tumanida barpo etilgan ushbu azamat ko'prik bahosiz vaqt va energiya-ni tejashiga omil bo'lishi shubhasiz. Miskindan kirib kelgan poyezd ortga qaytib o'tirmasdan Urganch-Shovot-Amudaryo orqali magistral liniyaga ulanadi. Bu, albatta xalqaro yo'nalishda yuk va yo'lovchi tashish uchun ham katta qulayliklar yaratadi. Yangi ko'prik nafaqat savdo-iqtisodiy, transport, temir yo'l, balki ilmiy-ma'rifiy, madaniy-ma'naviy sohadagi ishlarni rivojlantirishda, bu boradagi aloqalarni mustahkamlashda ham ulkan ahamiyatga ega.

vaqt o'tmasdan asov daryo uzra muhtasham ko'prik qurilib, el ixtiyoriga topshirildi.

– 1995 yilning dekabr oyida ilmiy izlanishlar olib borayotgan Nukus davlat universitetiga imtihon topshirish uchun ertalab yo'lga chiqdim, – deydi O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi, filologiya fanlari doktori Sayyora Samandar. – Daryoga kelib, ne ko'z bilan ko'rayki, ponton ko'prik muzlagani uchun yopib qo'yilgan ekan. Daryoni paromda kechib o'tishdan bo'lak choram yo'q edi. Uyda ikki nafar jajji farzandim qolgan, shuning uchun imtihon topshirib, kechgacha ortga qaytishim kerak. Bir amallab shaharga yetib borsam, sinovlar allaqachon tugab

yangi imkoniyat, sanoat va xizmatlar uchun esa juda katta madad deganidir. Shuningdek, minglab yigit-qizlarning Nukus yoki Urganchga qatnab oliy o'quv yurtlarida ta'lim olishlari uchun qulay sharoit vujudga keldi. Endi ular uchun yo'l azobi degan tushuncha begona.

Ma'lumki, yurtimizda sayyohlik salohiyatini rivojlantirish uchun keng shart-sharoit bor. Ushbu imkondan foydalanib tarixiy qadamjolarga sayohat qilish uchun Urganchdan Termiz, vodiylari, Samarqand, Buxoro hamda xalqaro turizmni takomillashtirish maqsadida Sankt-Peterburg, Madrid, Frankfurt, Pekin va Urumchi aviaqatnovlar yo'lga qo'yiladi.

Sayyohlarga bir yil davomida cheklovsiz Xorazm viloyatiga kirish uchun "O'zbekiston – mening ikkinchi uyim" viza tizimi joriy qilinadi. Turizmni qo'llab-quvvatlash jamg'armasining tushumi 3 yil davomida Xorazmning o'zida qoldiriladi.

Albatta, bunday katta imtiyoz va sharoitlar borasidagi yangiliklarni xalqimiz cheksiz mamnuniyat bilan qabul qildi. Ayniqsa, vohaliklar uchun Urganch shahrida "Lazgi" va "Avesto" muzeylarini tashkil qilish taklifini ham viloyatimiz ahli katta mamnuniyat bilan kutib oldi.

– Men umr bo'yi "Avesto" muzeyiga eksponatlar to'plab kelaman. Ammo muzeyimiz zax va qorong'i yerto'lada – tomoshagohning ostida joylashgani bois noyob eksponatlarni talab darajasida saqlash katta muammoga aylangan edi. Necha yildan buyon Urganchda to'liq sharoitga ega muzey tashkil qilinishini orzu qilardim. Prezidentimizning yangi bino qurilishi haqidagi tashabbusini eshitib ko'zlarimga yosh keldi. Barpo etilajak yangi muzey, albatta, millatimizga, yurtimiz tarixiga hurmat ramzi bo'lib qoladi, – deydi xalqaro "Avesto" jamg'armasining Xorazm viloyati bo'limi rahbari, o'lkashunos Komil Nurjonov.

Ha, bugungi kunga behisob shukronalar keltirsaq arziydi, mana, Amudaryoning ikki sohili birlashib, ellar va dillar bir-biriga qovushdi. Bugun qadimiy va hamisha navqiron diyorumizda o'zgaracha bir muhit, fayziyob kunlar hukm surmoqda. Bu qadim diyor uzra ikki ulug' el farzandi – Ibroym Yusupov va Otajon Xudoyshukurov yaratgan o'lmas qo'shiq sokin qanot yozib parvoz qilmoqda:

*"Xayolimda sahar-sahar
Esar Jayhun shamollari..."*
Bir paytlar "mavhum sharpa"lardek esgan Jayhun shamollarida bugun baxt va tolemdlik nafaslari ufurmoqda.

Erpo'lat BAXT

SHUKUH



Ko'klamning ilk kunlarida xalqimiz intilqlik bilan kutadigan Navro'z umumxalq bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida Prezident qarori qabul qilindi va bayramga taraddud ishlari boshlanib ketdi.

OLAM NURGA TO'LSIN SEN BILAN, NAVRO'Z!

Tabatda ezgulik tantanalari yuz ko'rsatib, nish urgan maysalar ko'kka intilganda, Yaratgan dunyoga yashil, zangor, noparmonranglarini sochib, boychechak boshlab bergan go'zallik ayyomida insonlar qalbidagi yangi orzu-niyatlar gullaydi. Qish bo'yi yelkasidan bosib turgan zilday tashvishlarni itqitib tashlagan el yeng shmarib ishga kirishadi: bobodehqon saxiy dalasiga oshiqadi, cho'ponbobo yashillanib borayotgan yaylovlarga havas bilan ko'z tashlaydi. Muz qoplagan cho'qqilarda jilg'alar uyg'onib, azaliy jangardor qo'shiqlarini boshlaydi. Odamzodning tabiat bilan uyg'unligi nishonlanadigan afsonaviy bayram – Navro'z!

Olam nurga to'lsin sen bilan, Navro'z!
Olam ichra siri harakat boshlanadi. Bu sir xabarini olamga qut-baraka sochuvchi yomg'irlar ko'kdan olib tushadi...

*Shivir-shivir...
Boshlaydi yomg'ir,
Samolardan keltirdimi sir?
Toshdan toshga ohuday chopdi,
So'qmoqlarga poyondoz yopdi.
Voqif bo'lgach sirdan qir, dala,
Dasht yuzlari qizardi – lola...
Tog'lar sirni toshga o'yidilar,
Ammo bog'lar gullab qo'yidilar.*

Navro'z siri tarzda, sezdimay kirib kelar ekan, bog'larda hayot guli rang-barang ochilib, bahor kelganini daraklaydi.

"Kimki Navro'z kuni bayram qilib quvonsa, keyingi Navro'z gacha xurram bo'ladi va farog'atda yashaydi", deb yozilgan "Navro'znoma"da. Shu boisdan ham, yurtimizning har bir ko'chasida, har bir xonadonida Navro'zni munosib, shod-uz xurramlik bilan kutib olishga taraddud boshlanadi. Ko'chalar, mahallalar, bog'lar obod qilinadi, mevali-manzarali nihollar ekiladi. Olam ham, ko'ngillar ham ravshan tortadi.

Bu yilgi Navro'z bayrami muqaddas Ramazon oyida bo'ladi. Ramazon oyi barokatli, savobga yo'g'irilgan oydir. Keksalar, ko'makka muhtoj kishilar holidan xabar olish, qo'ni-qo'shni, qarindosh-urug'larga mehroqibat ulashishdek azaliy urf-odatlar, udumlarimizni ado etish qalbimizni nurga to'ldiradi.

Navro'zda nafaqat olam, balki insonlar qalbi ham nurga yo'g'iriladi. Qadim an'anaviy kurash, ko'pkari singari milliy o'yinlarimiz bayram kunlari kishiga o'zgaracha za'vat-shavq bag'ishlaydi.

Navro'z haqida she'r bitmagan shoir bo'lmasa kerak. Albatta, bu borada ham: "Har tunung qadr o'lubon, har kunung o'lson navro'z" deya olam ahliga ezgulik tilagan hazrat Alisher Navoiy bobomizning ta'rifiga qiyos yo'q.

Mutafakkir bobomizning deyarli barcha asarlari – g'azallari, dostonlari, "Tarixi muluki Ajam", "Mahbub ul-qulub", "Holoti Pahlavon Muhammad", "Munshaot" kabi nasriy asarlarida ham Navro'z bilan bog'liq ta'rifu tavsiflar bor. Shunday kunlarda Navoiy devonlarini varaqlab, Navro'z haqidagi bitiklarini o'qish ham ko'ngillarni ravshan qiladi:

*Muvofiq kiydilar, bo'lmish magar navro'z ila bayram,
Chaman sarvi yashil xil'at, mening sarvi ravonim ham.*

HUMOYUN

JADID MATBUOTI

Ma'lumki, o'tgan asrning 20-yillarida yurtimizda "Yangi yo'l" nomli jurnal nashr etila boshlangan. Bu jurnal dastlab gazeta shaklida bosilgan. Ziy Said o'zining "O'zbek vaqtli matbuoti tarixiga materiallar (1870-1927)" risolasida va haqda ma'lumot bergan va 1924-yil 1-yanvardan boshlab chop etilgan ushbu gazeta haqida "Turkiston ish-tirokiyati firqa markazqo'mi qoshidagi xotinalar bo'limining fikr tarqatg'uchisi", deb ma'lumot bergan.

Demak, "Yangi yo'l" o'sha davridayoq xotin-qizlar uchun alohida gazeta sifatida yuzaga kelgan, dastlab ikki haftada bir martadan, keyinchalik haftada bir marta chiqa boshlagan. Xotin-qizlar erkinligi ushbu nashrning asosiysi mavzu hisoblangan. Gazeta ilk kezlarda xotin-qizlarga tekin tarqatilgan. Adadi dastlab 500, keyinchalik 2000 taga yetadi.

"Yangi yo'l" gazetasi Toshkent shahri Eski shahar mavzesidagi birinchi bosmaxonada bosilgan. Ziy Said,

"YANGI YO'L" DAN "SAODAT" GACHA



shuningdek, "Xotinalar ichida yaxshi yozuvchilar bo'lmaganidan, bunga ko'pincha er muharrirlar qatnashdilar", deb yozadi. Bu fikr, albatta, bahstalab. Dastlab taniqli shoir Elbek ushbu gazetani chiqarish, materiallarini tuzatish va tartibga solish bilan shug'ullanadi. Lola Sayfullina, Sobira xonim kabi ayollar bir qancha vaqt muharrir bo'lib ishlashadi. Gazeta jurnalga aylanguncha

talaygina ijodkorlarni kashf etadi. Xosiyat Tillaxon qizi, Zufar Nosiriy, Alimov, Mahbuba Rahim qizi, Ramz, Toshqin, Tojixon Shodiyeva, Olim Bog'bon qizi, Hojar G'ulom qizi, Olmosxon, Saodat Shamsiddin, S.Burnasheva, Oydin, Zarifa kabi qalamkash ayollar shular jumlasidan.

Taniqli adib Oybek "Yangi yo'l"da bosilgan she'rlarni to'plab, 1926-yilda "Erk kuylari" nomli bayoz tuzgan. O'ttiz sahifalik bayozning muqovasida "O'zbek yosh shoirlarining she'rlaridan bir to'plam" degan so'zlar bitilgan. S.Lyubimova unga so'zlash yozgan. Oybekning fikrlari "Bir-ikki so'z" sarlavhasi ostida keltirilgan. Bayozdan Xosiyat Tillaxon qizi, Oydin (Mashhura Sobirova), Hojar G'ulom qizi, Erkihi (Mahbuba

Rahim qizi), Saodat Shamsiddin, Sh.Burnasheva, Erk Chirchiqboyeva, Zarifa, Halima Shoumar qizi va Xosiyat Musinaning she'rlari o'rin olgan.

"Yangi yo'l" gazetasi 1925-yil dekabr-dan jurnalga aylantiriladi. Ziy Said o'z asarida mazkur jurnal haqida ham ma'lumot beradi: "Oyida ikki topqir chiqa boshladi. Maqsadi xotin-qizlarni yangi bilim qurollari bilan qurollantirib, madaniyat olamiga chiqarish, ularni paranjidan qutqazib, amaliy ravishda erlar bilan teng huquqli qilish, har turli hunarxona va artellarda yig'ilib ishlash yo'llarini ko'rsatib... ularni tarbiyalashdan iborat", deb yozadi. Jurnalning faoliyati yangi zamon mafkurasiga mos edi. "Yangi yo'l" sahifalaridan 20-yillar adabiyotiga doir ma'lumotlarni topish mumkin. Ushbu jurnalga o'sha davrga oid adabiy-madaniy hayotning o'ziga xos ko'zgi sifatida yondashish foydadan xoli bo'lmaydi. Ushbu nashrning adadi yildan-yilga ko'payib borgan odamlar orasida unga qiziqish ortganidan dalolat beradi. Chunonchi, dastlab 1500-2000

nusxada chop etilgan jurnalning tiraji 1929-yilga kelib 7500 nusxaga yetadi. 1927-1936-yillarda jurnalga Tojixon Shodiyeva, Sobira Xoldorova, Xosiyat Tillaxonova, Saodat Shamsiyeva kabi ayollar muharririk qiladi. O'sha kezlarda "Yangi yo'l" xotin-qizlar hayotining barcha jabhalarini qamrab olishga harakat qilganini ko'rish mumkin.

E'tiborli jihati, uning sahifalarida Abdulla Qodiriy, Usmon Nosir, G'afur G'ulom, Hamid Olimjon, G'ayratiy, Elbek, Mirtemir kabi taniqli ijodkorlarning asarlari ham bosilganini ko'rish mumkin. "Yangi yo'l" jurnali shu tariqa uzoq shakllanish yo'lini bosib o'tib, 1936-1950-yillarda "Yorqin turmush", 1950-1965-yillarda "O'zbekiston xotin-qizlari" va nihoyat, 1966-yildan "Saodat" nomi bilan chop qilina boshladi.

Ushbu jurnal hozirgi kunda o'zbek xotin-qizlarining hayotini faol yoritib kelayotgan yetakchi nashrlarimizdan biri hisoblanadi. O'z davrida O'zbekiston xalq shoirlari Zulfiya, Halima Xudoyberdiyeva, Oydin Hojiyeva bosh



muharrir sifatida uning obro'si va nufuzini oshirish yo'lida salmoqli ishlarni amalga oshirganini alohida ta'kidlash lozim. Ayni paytda O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, iste'dodli shoira Munavvara Usmonova rahbarlik qilayotgan "Saodat" jurnalining mazmun-mundarijasi yanada kengayib, ziyoli xotin-qizlarimizning sevimli minbariga aylangan.

Sitorabonu SHOMURODOVA,
Xalqaro Nordik universiteti dotsenti



O'LMAS MEROS

G'afur G'ULOM

“JALOLIDDIN” DRAMASI HAQIDA

XORAZM BAHODIRINING SALOMI

Atoqli shoir va dramaturg Maqsud Shayxzoda qalamiga mansub “Jaloliddin Manguberdi” tarixiy dramasi 1943-yili Hamza nomidagi O'zbek akademik drama teatrida sahnaga qo'yiladi. Ikkinchi jahon urushi yillarida xalqning jangovar ruhini ko'tarish maqsadida sovet hukumatining ijtimoiy buyurtmasi sifatida, lekin yuksak badiiy mahorat bilan yaratilgan ushbu asar keng jamoatchilikka, birinchi navbatda, frontga jo'nab ketayotgan askarlarga namoyish etilib, tomoshabinlar orasida zo'r muvaffaqiyat qozonadi.

Akademik shoir G'afur G'ulom mazkur spektakldan olgan hayrat va hayajonlarini “Jaloliddin” dramasi haqida nomli maqolada ifoda etib, asarga yuksak baho beradi.

Ammo 1945-yili nemis-fashist bosqinchilari ustidan g'alaba qozonilganidan so'ng, ya'ni Stalinning “eshagi loydan o'tib” bo'lganidan keyin “Jaloliddin Manguberdi” spektakli ham, uning muallifi ham kommunistik mafkura dohiylari uchun nafaqat keraksiz bo'lib qoladi, balki ashaddiy dushmanga

aylanadi. 1946-yili ushbu spektakl siyosiy jihatdan xato asar deb topiladi va sahnadan olib tashlanadi. Maqsud Shayxzoda esa o'tmishni ideallashtirishda ayblanib, keskin qoralanadi va 1950-yili hibsga olinib, 25 yillik qamoq jazosiga hukm qilinadi. U oradan besh yil o'tib, Stalin vafotidan so'ng ozod etiladi.

Sovet davlatida hukm surgan munofiq va makkor siyosat, chidab bo'lmas bedodlik tufayli Maqsud Shayxzoda va uning qadrdon do'sti G'afur G'ulomning qanday cheksiz iztirob va g'am-tashvish girdobida qolganliklarini hatto tasavvur qilish ham qiyin.

Yaqin o'tmishimizda yuz bergan bu kabi fojiali voqealar bizning bugungi erkin va ozod kunlarimizning qadriga yetishga, milliy istiqolimizni yanada mustahkamlashga da'vat etishi bilan beqiyos darajada ahamiyatlidir. Chunki ustoz G'afur G'ulom ta'biri bilan aytganda, “Xorazm bahodirining salomini zafarning ulug' kuniga biz eltayotirmiz”.

TAHRIRIYAT



...Taxminan yetti-yu chorak asr burun O'rta Osiyo Chingiz istilosiga duchor bo'ldi. O'lkani qon va olov bosdi. Tinch va obod shaharlar kul va tutunga aylandi. Butun muqaddas ot haqoratlandi. Mo'g'ul qilichi beshikdagi go'daklarni ham qonga beladi. Ocho'k'oz mo'g'ul talamagan na saroy qoldi, na kabutarxonaxona...

Katta davlat hukmdori mag'rur Muhammad Aloviddin Xorazmshoh mo'g'ul bo'roniga muqovimat ko'rsatishdan o'z qoladi. Irodasizlik, o'z harbiy boshliqlariga e'timodsizlik va oradagi murosasizliklar, fitnalor orqasida tojdor idora jilovini qo'ldan chiqaradi. Mo'g'ul o'tryadlari ta'qib etib, unga biron joyda qo'nim imkoniyatini bermaydilar. Nihoyat, vahshiy bir orolda qochqin shoh kafansiz ko'miladi.

Bu umumiy to'z'g'inlik va dahshatli falokat zamonlarida Jaloliddin, xalq, vatan, erk bayroqdori kabi qasos qilichini ko'tardi. Muhammad Aloviddinning bu o'g'li haqiqatan ajoyib yigit edi. Tabiat unga o'tkir aql, olijanob, mardona yurak va jo'shqin g'ayrat nasib etgan edi. Razil bosqinchilarni, manxus talovchilarni yurtdan quvmoq uchun Jaloliddin tarqoq qo'shinlardan, ona Vatan uchun kurashga otlangan xalq ommasini kuchlaridan bir mushat yashashga bel bog'laydi. Hamisha bahodirning yostig'i tosh, jangovar oti yo'ldosh bo'ladi. U balog'ar dushmanini bosadi, chekinadi ham, uradi, uriladi ham, lekin mo'g'ullar bilan kurashda o'z harbiy nomusi va sharafiga bir tomchi dog' yuqtirmaydi aslo. Uning aqliga, sohibi tadbirligiga, mardonavor ishlari shaytoniy takabburlik cho'qqisiga mingan Chingizning o'zi ham tan beradi.

Yaqinda Hamza nomidagi O'zbek davlat akademik drama teatrida shoir Shayxzodaning “Jaloliddin” dramasi tomosha qilindi. Ko'zlarimiz qarshisida uzoq moziy jonlandi. Butun o'lkani dahshatli va mash'um zilzila kabi titratgan vahshiy istilos hamda vatan o'g'illarining erk, mustaqillik, nomus va sharaf uchun boshlagan fidokorona kurashi yorqin, ma'nodor dramatism bilan to'la, hayajonli kartinalarda gavdalanadi. Shoir Shayxzoda o'z dramasi qahramonlik tarosini kuylaydi. Bu qahramonlikning jonli ruhi – Jaloliddin. U sahnada ilk ko'rinishi va ilk so'zlar bilan diqqatni bog'laydi, yuraklarda mehr uchqunlarini chaqadi va bundan keyingi voqealar girdobida xorazmlik bu yigit o'z siyosining ma'naviy go'zalligi bilan tomoshabinni sehlardi.

Xorazmshohning tillakoriy saroyida to'y. Jaloliddinning suyuqli singlisi Sultonbegim uzatilayotir. Sho'x yalla, baxtga, ishqqa doir xayollar... Biroq mo'g'ul elchilari falokatning sovuq bo'roni bilan kiradilar. Xorazmshohni taraddud va qo'rquv yoqalaydi. Vazirlar unga haybarakallachi. Lekin valiahd Jaloliddin – bahodirlikni o'tkir aql bilan bezagan bu ajoyib yigit vaziyatni darhol anglaydi. Dushmanni kuchi va o'salligi unga ma'lum. O'g'il otani kurashga undaydi va o'zi jang maydoniga vatanning uzoq sarhadlarida dushmanni bo'g'moqqa chiqishga tayyorlay, faqat Xorazm hukmdori bu samimiy, olijanob botirning toza g'oyalarida qandaydir adabsizlik va isyon uchqunlarini sezadi. Jaloliddin bir onda toj-taxt huquqidan mahrum etiladi. Yurtning, katta davlatning istiqboli, taqdiri hali ko'zi yumuq chaqaloqqa topshiriladi.

Dramaturg tarixiy vasiqachilikka emas, tarixiy jarayonning haqiqiy mazmunini, uning ichki ma'nosini badiiy tajassumlashtirishga intilgan. Haqiqatan, voqealar jarayonida Xorazmshoh saltanatini ichdan kemirgan, darmonsizlantirgan va uni falokatlariga ichdan tayyorlagan yashirin kuchlar, omillar sirtga bo'rtib chiqadi.

Jaloliddin valiahdlik tojini oddiy qalpoq kabi olib yerga qo'yadi. “Koshonalar chodirni yaxshi ko'rgan”, qilich va qalqon do'sti o'z siyosida ulug' insoniy fazilatlarini timsol etadi. U shunqorning qanotlari – erkdan: inson uchun hamma ehtiyojlardan erk baland va go'zaldir. U deydi:

*Kishi tug'ilmaydi boshda toj bilan,
Tug'ilar erklikka ehtiyoj bilan.*

Asarda Jaloliddin oxirigacha shu erk ishq bilan yonadi. Vatan, el erki uchun dahshatli janlgar girdobiga kiradi. Uning vatanparvarligi toj-taxt, e'tibor dag'dag'asidan ozod, asl vatan o'g'lining fidokorligidir. Bu onaga mehr kabi samimiy va pokdir:

El, o'lka sog' bo'lsin, toj kelib ketar!

Mo'g'ul otlari vatan gulzorlarini top-tarkan, eski teraklar qularkan, Jaloliddin o'z ishqiga – ona Vatanga sodiq qoladi. Uning uchun bo'ysunishdan o'lim afzal: “Chinor sinar – egilmas!” Jaloliddin uchun kurashda yagona kuch manbai – xalq ommasidir. Xalq ham uni sevadi, ajoyib bahodir, aqli sardorning obrazida yurtning salomatligini, nomus va sharafini, qora bo'rondan so'ng tug'ilajak yorqin kunduzni ko'radi.

Xalq qahramoni sodda Elbars pahlavon bilan Jaloliddin orasidagi muhabbat, sadoqat, ishonch behad jozibador quvvatga egadir. Bahodirli-gi bilan tarixda o'lmas nom, abadiy so'nmas shon qozongan mashhur Temur Malik – Xo'jand mudofaachisi ham olijanob mardona yuragining butun mehri, ishonchi bilan o'z sardoriga marbut va sodiqdir. Jangovar umrining har bir kuni dostonlarga sazovor Temur Malik vatan yo'lida odamzod tob bermas qiynoqlarga chidaydi.

Chingiz Jaloliddinning temir irodasini sindirishdan va jang maydonlarida ro'yrost, uzil-kesil yengishdan o'z qonli panjasiga ilmoq niyatida qari tulki fitna to'rini keng yoyadi. Jaloliddin izini ta'qib etadilar. Yeng uchida xanjarlar, guldastalar ichida zaharlar asl umrni kesishga muhayyo.

Jaloliddin obrazi asarda to'laqonli, jonli va ulug'vor obrazdir. So'zi, harakati va butun siyosini bilan romantik ko'tarilma ruhli bahodir ayni zamonada haqiqiy odamiylik xislatlaridan bahramand. Uning dushmanga nafarat bilan qaynagan yuragi sodda cho'pon nayidan goho eriydi. U do'stlarini, yaqinlarini sog'inadi, yurakni qandaydir g'ashlik va hasrat bilan to'ldiruvchi tushlar ko'radi. Singlisi Sultonbegimni erkalaydi, unga hazillashishdan zavqlanadi...

Sultonbegim siyosida Shayxzoda g'oyat barkamod obraz yarata bilgan. Husn, aql, jasorat, olijanoblik bu ayolda ajoyib armonik bir kull tashkil etgan. Falokatli kunlarda ona-Vatanni tark etmikka majbur bo'larkan, Sultonbegim chuqur hasrat va samimiyat bilan deydi:

*Garchi erdim Xorazm qasriga bezak,
Baxtiyorman bu yerda qolsam*

kanizak.

Sultonbegim uchun eri keltirgan quti-quti bezaklardan mo'g'ul xarob etgan go'zal Samarqandning bir parcha g'ishti ming afzal. Baxtsiz Sultonbegim umrining yana bir tragediyasi shundaki, uning eri Badriddin eng qabih, olchoq bo'lib chiqdi. Badriddin vatanparvarlarning muqaddas ishiga ne-ne xiyonatlar qilmaydi! Chingizning etigini yalab, uning qonli qo'ldan toj kiyimni umr g'oyasi qilgan bu makkor o'z qoligiga tushgan kuchli obrazdir. Badriddin u davrdagi saroy doiralari va kiborlarning axloqini, intilishini mukammal ifodalaydi. Sultonbegim najot qirg'og'ini topadi. Bu – uning

bahodir og'asi, vatan, erk uchun jang maydoni. Go'yo sevgi, nash'a, baxt uchun yaratilgan bu nafis Xorazm chechagi qilich yalang'ochlab, otlarda uchadi. Go'zal, ko'rkam sochlaridan bahodirlarning otlariga ayil yasashlarini orzu etadi. Go'yo og'a-singil kurashda bir-birlarini ilhomlantiradilar. Sultonbegim shaxsida vatan va el qizi obrazi chaqnaydi.

Shayxzoda katta, salmoqdor obrazlar va xarakterlar yaratgan. Oling, tarixchi Nasaviy: pok vijdonli dono olim asarga yuksak, ulug' bir kuch bag'ishlaydi. Jaloliddin kurashida go'yo qilich bilan ilm birga harakat qiladi. Bir qo'lda qalam, bir qo'lda qilich, qo'ltig'ida kitob bilan shahid bo'lgan donishmand qahramonlikka doir kitobini batamom tugatishni kelajak nasllarga – bizga vasiyat etadi.

“Jaloliddin” dramasi kompozitsiyasi pishiq, dramatik to'qinishlarga boy bir asar. Voqealar jonli va shiddatli ravishda inkishof etiladi. Intriga kuchli, o'tkir va original. Drama fikr va hikmatga boy, baland ruhli, baquvvat she'r bilan yozilgan. “Jaloliddin” talanti shoirning ilk dramatik asari. Shuning uchun, tabiiy hamma kartinalar, epizodlar bir tekis kuchga, badiiy chuqurlikka ega, deydish qiyin. Lekin shunisi muhaqqaqki, “Jaloliddin” o'sayotgan o'zbek dramaturgiyasida, shubhasiz, muhim hodisadir. O'zining fikriy va badiiy to'liqligi, yuksakligi jihatidan “Jaloliddin” bizning dramaturgiyamizda yuqori poyani ishg'ol etadi.

“Jaloliddin” davrimizga g'oyat hamohang; Ulug' Vatan urushi yillarida, sovet xalqlarining qahramonligi mislsiz gullagan davrda botir ajdodlarning shonli ishlari yuraklarni iftixor bilan to'ldiradi, tomirlarda yalovbardorlik tuyg'ularini mavjantiradi, qonli chirkir fashizmni yakson qilish uchun muazzam kurashimizda yangi zafarlar va shonlar cho'qqisiga ilhomlantiradi. Jaloliddin xalq qahramonligining o'lmasligiga, uning zafariga chuqur ishonch bilan: “U kunga salom!” deyarak, sahnadan ketadi. Xorazm bahodirining salomini zafarning ulug' kuniga biz eltayotirmiz.

Ko'pdan buyon uzun umrli, fikriy va badiiy salmoqdor sahna asarlarini orzu qilar edik. “Jaloliddin” bu orzumizga javob berishga qodir. Shoir Shayxzodani, Hamza nomidagi O'zbek davlat akademik drama teatri ijodiy kollektivini bu go'zal asar bilan qutlaymiz.

1945, fevral



YURT ARSLONLARI

Boshlanishi 1-sahifada.

Shu maqsadda yangi harbiy ta'lim maktablari tashkil qilinishi barobarida mavjudlarida ham ta'lim tizimi tubdan isloh qilindi.

Prezidentimiz 1-mart kuni Xorazm viloyatiga tashrifi doirasida Urganch shahridagi Jaloliddin Manguberdi nomidagi harbiy-akademik litseyini borib ko'rdi. Ta'lim muassasasi 2023-2024 o'quv yilidan faoliyatini boshlagan. 300 o'rinni zamonaviy binoda yoshlarning ta'lim-tarbiya olishi uchun barcha sharoitlar yaratilgan.

Davlatimiz rahbari ona Vatan solnomalarini o'zining jasorati bilan to'ldirib turgan siymolarga hamisha hurmat-ehtiram ko'rsatib kelmoqda. Ayniqsa, Xorazm farzandi, millat qahramoni Jaloliddin Manguberdi nomini ulug'lash, abadiylashtirish va yosh avlodga uning matonati umrini ibrat qilib ko'rsatishi barchamiz uchun o'rnatilgan. Urganch shahrida Jaloliddin Manguberdi muhtasham yodgorlik o'rnatilgani hamda milliy qahramon nomi bilan ataluvchi maxsus ta'lim maskani tashkil etilgani butun xalqimizga faxr-iftixor bag'ishlaydi, albatta.

O'quv xonalari eng so'nggi rusumdagi multimedia va kommunikatsiya vositalari bilan jihozlangan. Axborot-resurs markazida 7 mingdan ziyod o'quv va badiiy kitoblar, 11 mingdan ortiq elektron adabiyot bor. Markaz viloyatdagi oliy ta'lim muassasalari hamda Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi tarmog'iga ulangan. Shuningdek, bu yerda Jaloliddin Manguberdi muzeyi, yopiq turdagi sport zali hamda ochiq maydondagi sport shaharchasi, saflanish maydoni, oshxona va yotoqxonaga mavjud.

Mamlakatimiz rahbari muassasa va undagi ta'lim jarayonlari bilan tanishar ekan, o'qituvchi va o'quvchilar bilan samimiy suhbatlashdi. Jaloliddin Manguberding matonati va jasorati yosh avlod uchun beqiyos saboq ekanligini ta'kidladi.

– Bu yerda aniq fanlar o'qitilishi albatta yaxshi. Shu bilan birga, dars jarayonlarida vatanparvarlik tarbiyasiga alohida e'tibor qaratish, yoshlarga asl qadriyatlarimizni chuqur o'rgatish lozim. Toki, milliy ruh va g'urur ularning eng kuchli quroliga aylansin, – dedi Shavkat Mirziyoyev.

Suhbatda harbiy-jangovar qudrat, yuksak ma'naviy salohiyat yurt himoyachilarining muhim tayanchi ekaniga urg'u berildi.

Litseyda ta'lim olayotgan o'quvchilardan biri Eshqulov Azizbek so'z olib, kelajakda harbiy uchuvchi bo'lmoqchiligidini, ingliz, rus tillarini bilishi, ayni paytda koreys tilini ham o'rganayotganini aytib o'tdi. Azizbekning burro gap-so'zlari, fikr-mulohazalari uning keng dunyoqarashga ega ekanligini yaqqol ko'rsatdi. Ayniqsa, uning: “El-yurt posboni va qalqoni bo'lish – eng ulug' vazifa. Vatanim uchun jonimni ham ayamayman. Chunki jonimdan ham aziz ota-onam, ukam, singlim shu diyorda yashayapti”, degan so'zlari barchani birday ta'sirlantirdi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar natijasida milliy armiyamizning qiyofasi tubdan o'zgardir. Bugun O'zbekiston Qurolli Kuchlari mamlakatimiz xavfsizligi va barqarorligini, sahadlarimiz daxsizligini ta'minlashga qodir bo'lgan, harakatchan va puxta qurollangan qudratli kuchga aylandi.

Litsey Urganch davlat universiteti hamda Chirchiq Oliy tank qo'mondonlik-muhandislik bilim yurti bilan hamkorlik o'rnatgan. Shuningdek, Urganch shahridagi 3-umumta'lim maktabi o'quvchilari bilan harbiy-vatanparvarlik tadbirlari, sport musobaqalari o'tkazib kelinmoqda. Bu tashabbusni boshqa maktablarda ham keng ko'lamda tashkil etish rejalashtirilgan. Ushbu sa'y-harakatlar samarasi o'laroq, kelajakda yosh avlod vatanparvar, mard va jasur bo'lib kamolga yetadi, degan umid qalbimizni yoritib turadi.

Dunyoda yuzaga kelgan hozirgi murakkab vaziyatda ona O'zbekistonimiz mustaqilligi va suverenitetini, uning hududiy yaxlitligini ta'minlash, jamiyatimizda hukm surayotgan tinchlik va totuvlikni asrab-avaylashda askarlarimizning ma'naviyatini, vatanparvarlik tuyg'usini yuksaltirishga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilyapti.

Keyingi yillarda Prezidentimizning tashabbusi bilan bu mavzularda qator filmlar, spektakl va badiiy asarlar yaratilmoqda. Tashrif chog'ida ana shu ijob namunalarning mualliflari, aktyor va rejissyorlari bilan harbiy akademik-litsey o'quvchilari o'rtasida doimiy muloqot va uchrashuvlar tashkil etishni o'quv dasturiga kiritish masalasi ko'tarildi.

Shuningdek, harbiy ta'lim dasturlarini ilg'or tajriba asosida yangilash, pedagoglar malakasini oshirish, Vatan himoyachilarining axloqiy-ruhiy va jangovar tayyorgarligini yanada kuchaytirish choralarini izchil davom ettirish talab qilinadi. Bu boradagi ishlarda “Xalq va armiya – bir tanu bir jon!” degan hayotbaxsh shior asosida davlat va jamoat tashkilotlari, harbiy-ma'muriy sektorlar hamda keng jamoatchilik hamkorligi kutilgan natijalarni berishiga ishonchimiz komil.

Iqbol MIRZO



XALQ MULKI MUQADDAS!

Boshlanishi 1-sahifada.

Shu bois "Yangi O'zbekiston – maktab osonasidan, ta'lim-tarbiya tizimidan boshlanadi", degan g'oya asosida keng ko'lamli islohotlarni amalga oshirish bo'yicha keng qamrovli vazifalar belgilandi. Sohaga byudjetdan ajratilgan yotgan mablag'lar hajmi ham yildan-yilga ortib bormoqda. Xususan, xalq ta'limiga 2021-yilda qariyb 32 trln. so'm, 2022-yilda 37,5 trln. so'm, 2023-yilda 47 trln. 15 mlrd. so'm ajratilgan bo'lsa, joriy yilda bu raqam 52 trln. 777 mlrd. so'mni tashkil etmoqda.

Yana bir e'tiborli jihati, boshqa byudjet tashkilotlari kabi xalq ta'limi muassasalari xodimlarini ham turli hasharlar, jumladan, paxta yig'im-terimiga jalb etishga chek qo'yildi. Pedagogning maqomi qonun bilan belgilanib, uning huquq va erkinliklari davlat tomonidan himoya qilinishi mustahkamlandi.

Albatta, yaratilayotgan bunday sharoit va imkoniyatlar haqida uzoq gapirish mumkin. Lekin bu soha adolatli, shaffof va korrupsiyasiz sohaga aylanmas ekan, qancha ish qilinmasin, qancha mablag' sarflanmasin, kutilgan natija va qo'yilgan maqsadlarga erishish qiyin kechishini hayotning o'zi ko'rsatmoqda.

Ochiq aytish kerak, o'tgan davrda xalq ta'limi tizimining ayrim sohalari daraxt poraxo'rlilik, tanish-bilishchilik, suiste'molchilik avj olgan edi. Afsuski, bunday illatlardan hozir ham to'liq xalos bo'la olganimiz yo'q. Shuncha e'tibor va g'amxo'rliklarga qaramasdan, sohada korrupsiya holatlari, jiddiy muammo va nuqsonlar saqlanib qolayotgani barchamizni, xususan, o'z hayotini ushbu sohaga bag'ishlagan fidoyi o'qituvchi va murabbiylarimizni tashvishga solmoqda.

Ayniqsa, ta'lim tizimidagi korrupsiyaviy omillar tahlii, birinchi navbatda, sohadagi ayrim mansabdor shaxslar tomonidan byudjet mablag'larining talon-toroj qilinishi bilan bevosita bog'liq bo'lib qolmoqda. Ularning davlat tomonidan zahmatkash pedagog xodimlarni ijtimoiy himoya qilish va ish haqini oshirish uchun ajratilayotgan mablag'larga chang solayotgani juda achinarlidir.

Shu o'rinda ayrim misollarga murojaat qil-sak. Andijon shahar xalq ta'limi bo'limining mansabdor shaxslari xodimlarga ish haqi berish haqida soxta hujjatlar tuzib, "O'zAsbo" dasturiga kiritish orqali ikki yil ichida qariyb 34 mlrd. so'mni talon-toroj qilgan. Bu ham yetmaganidek, ular mazkur dasturiy ta'minotga maktablarda umuman ishlamaydigan 41 nafar, ishdan bo'shab ketgan yoki homi-ladorlik ta'limida bo'lgan 384 nafar fuqaroni ham kiritib, go'yoki ularga ish haqi berish vaji bilan yana 12 mlrd. so'm pulni o'zlashtirgan. Shuningdek, 604 nafar ishchi-xodimga ish haqi, mukofot, mehnat va tug'ruq ta'tili uchun to'lovlarni hech bir asossiz ko'paytirib yozish yo'li bilan qo'shimcha 2,5 mlrd. so'm mablag' ham o'marigan.

Holbuki, ushbu mablag'larni qanchadan qancha pedagog xodimlarning sharafli mehnatini rag'batlantirish uchun yo'naltirish mumkin edi.

Xalqimizda: "Yangisini qurmay turib, es-kini buzma", degan hikmatli naql bor. Biroq ta'lim tizimidagi ayrim mutasaddilar maktab binolarini o'rinsiz ravishda buzish yo'li bilan ham xalq mulkini talon-toroj qilishmoqda. Masalan, Angren shahar maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi mansabdor shaxslari qalbaki buyruq

"K.E." mas'uliyati cheklangan jamiyati rahbari A.S. maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi "O'quv ta'lim-ta'minot" davlat unitar korxonasi mansabdor shaxslari bilan o'zaro til birlashtirib, Qashqadaryo viloyatidagi umumta'lim maktablariga jami 19,6 mlrd. so'mga 45 turdagi o'quv-mebel jihozlarni yetkazib berish yuzasidan 2021-yil 18-iyunda o'tkazilgan tenderda g'olib bo'ladi. Biroq u tender shartlarida qayd etilgan texnik tasnif-



asosida ushbu hududdagi 5-maktab binosini buzib, 400 mln. so'mdan ortiq maktab mulkini o'zlashtirgan. Yoki Xo'jaobod tumanidagi 17-sonli nuqsoni bor bolalar davlat ta'lim muassasasi direktori I.R. mazkur muassasa ixtiyorida 1 gektar yer maydonini go'yoki talon amalga oshirish yo'li bilan yakka tartibda uy-joy qurish uchun ajratish to'g'risida tuman hokimining soxta qarorini qabul qilishga erishib, davlat manfaatlariga jiddiy ziyon yetkazgan.

Xalqqa foydasi tegadigan bino-inshootlarni qurish qanchalik savobli ish ekanini hech kimga sir emas. Afsuski, nafsi hakalak otgan ayrim kimsalar maktab qurishga yo'naltirilgan mablag'larga ham ko'z olaytirishmoqda. Denov tumani xalq ta'lim bo'limi mansabdorlari bir guruh shaxslar bilan o'zaro til birlashtirib, tumandagi to'g'riqizta umumta'lim maktabini kapital ta'mirlash maqsadida davlat byudjetidan ajratilgan 8,6 mlrd. so'm mablag'ning 2,5 mlrd. so'mini obyektlarda amalda bajarilmagan ish-larni qo'shib yozish orqali o'zlashtirishgan.

Ma'lumki, ta'lim muassasalarida pedagog xodimlar va o'quvchilarga zarur shart-sharoitlar yaratish hamda ta'lim sifatini oshirish maqsadida o'quv xonalari zamonaviy vositalar bilan ta'minlanmoqda. Biroq ayrim nopok kimsalar maktablarga o'quv-mebel jihozlarni yetkazib berishda ham qalloblikka yo'l qo'yib, bu yo'nalishdagi islohotlarga to'siq bo'lmoqda.

da va davlat standartlariga mos bo'lishi lozim bo'lgan o'quv-mebel jihozlarni atayin kichik o'lchamlarda tayyorlash va bahosini qimmat narxda hisoblash orqali 1,8 mlrd. so'm byud-jet mablag'ini o'zlashtirishgan. Eng achinarlisi, ushbu nstandart jihozlardan foydalanishi oqibatida o'qituvchi va o'quvchilarning sog'lig'iga yetkaziladigan zararni bahosini hech qanday mablag' bilan o'lchab bo'lmaydi.

O'rni kelganda yana bir muhim masalaga to'xtalib o'tishni joiz deb bildik. Ma'lumki, mam-lakatimiz Konstitutsiyasining 61-moddasida davlat va fuqarolar O'zbekiston xalqining tarixiy, ma'naviy, madaniy, ilmiy va tabiiy merosini as-rab-avaylashi shart ekanligi belgilab qo'yilgan. Albatta, xalqimizning bebaho ma'naviy xazi-nasini ko'z qorachig'idek asrab-avaylash har birimizning muqaddas burchimiz hisoblanadi.

Biroq prokuratura organlari tomonidan madaniy meros obyektlarini asrash va muho-faza qilish borasida olib borilgan o'rganishlarda bu yo'nalishda ham bir qator qonun buzilishi holatlari aniqlangan. Misol uchun, O'zbekiston Milliy universitetining axborot-resurs marka-zi direktori I.K. qo'l ostidagi xodimlar bilan til birlashtirib, unga ishonib topshirilgan XIII-XIX asrlarga oid "Qur'oni karim", "Zafaroma", "Al-muxtasar al-viqoya", "Tarkibi bandho", "Ki-tobi tavziho", "Sharh ala fiqhi Kaydoniy", "Nur ul-anvor ala sharh kitob al-minar", "Latoif va taroyiq", "Nasix ut-tavorix", qadimiy sanskrit

tilidagi "Shukasaptati" (keyinchalik "To'tino-ma" nomi bilan shuhrat topgan) kabi jami 57 dona noyob tarixiy va badiiy ahamiyatga ega qo'lyozma asarlar, mashhur ulamolalar qalami-ga mansub 12 dona toshbosma asar hamda 9 ta tarixiy hujjatni talon-toroj qilgan. Ekspert-larning xulosasiga ko'ra, mazkur noyob asar-larning umumiy qiymati 2,6 trln. so'mga baho-langan. Mazkur qabih talon-torojlikka oid ish jinoyat ishlari bo'yicha Toshkent shahar sudi tomonidan jinoyat ishi apelyatsiya instansiya-si tartibida ko'rib chiqilib, javobgar shaxslarga jazo muqarrarlari ta'minlangan.

Bundan tashqari, 27 ta madaniy meros obyektidan biron-bir huquqiy asossiz noqo-nuniy foydalanib kelingan. 35 ta foydalanish-ga (ijaraga) berilgan obyektga ilmiy ekspert kengashining ruxsatisiz qurilish-ta'mirlash ishlari bajarilgan bo'lsa, 12 ta madaniy me-ros obyektidan oqilona foydalanilmagan. Mi-sol uchun, Buxoroda Mavlono Sharif ansam-bli, Jizzaxda Sa'd Ibn Abu Vaqqos majmuasi, Qashqadaryoda "Dorus Saodat" majmuasi, Navoiyda Mir Said Bahrom maqbarasi, Na-manganda Umarxo'ja Eshon masjidi, Andijon-da Bandi ota ziyoratgohida ruxsatisiz ta'mirlash ishlari amalga oshirilib, tarixiy obidalariga jiddiy zarar yetkazilgan.

So'nggi 5 yilda madaniy meros obyekti hisoblangan 59 ta masjidni ta'mirlash, res-tavratsiya qilish uchun 36,9 mlrd. so'm ham-da 51 ta ziyoratgoh uchun 60,1 mlrd. so'm byudjet mablag'lari sarflangan. Shu davrda Milliy ro'yaxga kiritilgan barcha 239 ta obyekt-ni restavratsiya qilish uchun byudjetdan jami 268,6 mlrd. so'm mablag' ajratilgan. Ammo o'tkazilgan o'rganishlarda loyihada ko'rsatil-magan 50 ta ish uchun 7 mlrd. so'm, ruxsat olinmagan 15 ta ish uchun 17,5 mlrd. so'm asossiz sarflangani, 68 ta holatda 3 mlrd. so'm o'zlashtirilgani hamda 10 ta obyektga 8 mlrd. so'mlik zarar yetkazilgani aniqlandi.

So'nggi ikki yilda bu yo'nalishda qonun buzilishi holatlarini bartaraf etish bo'yicha 148 ta taqdimnoma kiritilib, 108 nafar shaxs ma'muriy javobgarlikka tortilib va 84 ta jinoyat ishi qo'zg'atildi, yetkazilgan zarar 8,2 mlrd. so'mi undirildi.

Bundan tashqari, prokuratura organlari tashabbusi bilan tarixiy obyektlarda homiylik asosida qariyb 2,6 mlrd. so'mlik ta'mirlash ish-lari bajarildi.

Bir so'z bilan aytganda, yurtimizda ta'lim sohasida uchrayotgan yuqoridagi kabi ko'ngil-siz holatlar hamda bebaho madaniy merosimiz namunalari asrash borasida yo'l qo'yilayot-gan kamchiliklar har bir yurtdoshimizni tash-vishga solishi tayin. Shu bois ushbu sohalar-da qonun ustuvorligini ta'minlash uchun kelgusi-da ham barcha qat'iy choralar ko'riladi.

Nig'matilla YO'LDOSHEV,
O'zbekiston Respublikasi
Bosh prokurori

ADABIY DO'STLIK

"AL-SAQAFA AL-JADIDA" JURNALI:

"O'TKAN KUNLAR" ROMANI

va uning muallifi haqida

Misrda chop etiladigan "Al-Saqafa al-Jadida" jurnalida Qohiradagi Ayn Shams universiteti professori Muhammad al-Jibaliyning "Abdulla Qodiriy – o'zbek adabiyotining yirik namoyandasi" sarlavhali maqolasi chop etildi.

Jurnalist mazkur tahliliy maqolasida mashhur adib va mutafakkir Abdulla Qodiriy ijodi, xususan, uning o'zbek mumtoz adabiyotining durdonalaridan biri sifatida e'tirof etiladigan "O'tkan kunlar" romani haqidagi muhim ma'lumotlarni mushtariylar e'tiboriga taqdim qilgan.

Maqola muallifi Abdulla Qodiriy "O'tkan kunlar" romanini yozib, yangi o'zbek adabiyotida roman janriga asos solganini ta'kidlagan. Uning qayd etishicha, mazkur roman va uning muallifi ijodi o'zbek madaniyati hamda o'zbek milliy adabiyoti taraqqiyotida muhim bosqich bo'lgan.

"Qodiriy ikki asr bo'sag'asida, ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy qiyinchiliklar, qarama-qarshiliklar va notinchiliklar davrida kamol topdi, – deyiladi maqolada. – Tabiiyki, bu uning dunyoqarashi va badiiy ijodiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Adib ijodining bu cho'qqisi borliq haqidagi tarixan isbotlangan dolzarb ijtimoiy savollarga aniq javob beradi".

Maqolada ta'kidlanganidek, "O'tkan kunlar" o'zbek adabiyotidagi birinchi realistlik roman hisoblanadi. Asar davomida yozuvchi o'quvchiga to'g'ridan to'g'ri murojaat qiladi va unga mavjud haqiqatni butun murakkabligi va go'zalligi bilan yetkazadi.

"Romani tarixiy tahlil qilish orqali voqealar-ning ildizlarini, yorug'lik va zulmat, haqiqat va yolg'on o'rtasidagi aqliy ziddiyatni o'rganish mumkin. Yozuvchi o'sha davrda amalda bo'lgan xalq va diniy urf-odatlar, marosimlar, yozilmagan qonunlarni yuksak mahorat bilan tasvirlagan. Ikki yosh o'rtasidagi muhabbat hikoyasi orqali u murakkab muammolarni ko'tarib chiqadi. Bu yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi kurashdir", deyiladi maqolada.

Maqolada qayd etilishicha, buyuk adib Abdulla Qodiriy o'zbek adabiyoti tarixi va taraqqiyotida o'chmas iz qoldirgan. Abdulla Qodiriy bejiz "millat ko'zguisi" deb aytishmagan. Adib o'z asarlarida XIX asrdagi Turkiston tarixini ishonchli yoritadi, o'zbek xalqi hayotining asl obrazlarini tiklaydi, zamon muammolarini jasorat bilan tanqid qiladi.

"Arab kitobxonlari ushbu noyob adabiy ta'sir va u orqali O'zbekiston tarixidagi muhim davrni ilk bor bilib olishlari uchun tez orada "O'tkan kunlar" romanining arab tiliga tarjimai nashr etiladi", deyiladi maqola yakunida.

"Dunyo" AA

Ekologiya

Bundan 40-50 yilcha oldin farg'onalik ustoz muallim va shoir Iqbol Nazarov Vatani haqidagi she'rida: "Arig'ingdan yotib suv ichay", deya orzulangandi. Chanqoq odam yugurib kelib ariqdan engashib suv ichgan damlar bugun ertakka aylandimi? Ogahiy yozganidek, samo ham "ondin yog'ar girdi xatar"ga aylinish bormoqdami? O'sha "girdi xatar" qayerdan kelmoqda? Yerdan o'rlab ko'kka yetmayaptimi?

To'g'ri, bugungi kunda "Yashil makon" loyihasini amalga oshirish, yashil iqtisodiyotga o'tish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Biroq ekologiyani asrash va avlodlar uchun yaroqli iqlim sharoitini saqlab qo'llash har birimizning burchimizdir. Qars ikki qo'ldan chiqadi, deb bejiz aytmagan xalqimiz.

Yaqinda Toshkent havosining me'yordan ortiq ifloslanishi haqida ko'pchilik bong urdi, ko'chalarda mashqlar bajar-maslik, niqob taqib yurish haqida tavsiyalar berildi. Bunga goh ko'mir, goh mazut, qurilishlar, avtomobillar sabab qilib ko'rsatildi. Bu omillar havoning so-fiigiga salbiy ta'sir qilayotganidan ko'z yumib bo'lmaydi. Aslida o'zimiz ham uning ifloslanishiga ma'lum darajada "hissa" qo'shmaymiz.

Shu xususda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati Islom Xushvaqtovga murojaat qildik:

– Islom aka, bugungi kunda atmosferada



fera havosining ifloslanishiga asosan nimalar sabab bo'lmoqda?

– Ayni paytda sanoat korxonalarida hamda avtotransport vositalari havoni ifloslantirayotgan asosiy omillar bo'lib qolmoqda. 2023-yilda respublika bo'yicha havoga chiqarilgan zararli moddalar 2138,3 ming tonnani tashkil etgan bo'lsa, shundan 1279,9 ming tonnasi avtotransport vositalari, 858,4 ming tonnasi sanoat korxonalarini hissasiga to'g'ri kelgan.

Mamlakatimizda atrof-muhit muhofazasi, xususan, sanoat chiqindilarini kamaytirish, sohaning xuquqiy asoslarini takomillashtirish, xalqaro xujjat-larni, yaqin va uzoq muddatga mo'ljallangan davlat dasturlarini qabul qilish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirildi. O'zbekiston jahon hamjamiyati bilan birgalikda ekologik muammolar-

ni yechish yo'lidan bormoqda. Biroq amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarga qaramay, ayrim hududlarining, xususan, Toshkent shahrida havoning ifloslanishi ko'rsatkichlari yuqorilgicha qolmoqda.

– Muammoning yechimiga doir qanday takliflarni bergan bo'lardingiz?

– Avvalo, ifloslantiruvchi moddalarni atmosferaga chiqarishni kamaytirish maqsadida atrof-muhitga ta'sir ko'rsatuvchi yirik korxonalariga zamonaviy chang-gaz tutqichlar o'rnatish bo'yicha alohida dastur ishlab chiqib amalga oshirish, xorijdan keltirilayotgan sanoat filtrlari, chang-gaz tutqichlar ishlab chiqarishni mahalliy lashtirish choralarini ko'rish va bu borada mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash lozim.

Shuningdek, shaharlarga kirishda

yirik avtoturargohlar tashkil etib, shaharlarga kiradigan avtomobillar oqimini boshqarish, jamoat transporti xizmati va yo'lovchilarga xizmat ko'rsatish holatini tubdan o'zgartirish, hududlarda yashil maydonlarni ko'paytirish tavsiya etiladi.

Bu haqda gap ketganda yana bir muhim masalaga to'xtalib o'tishimiz joiz. Odatda, ko'pchilgimiz tog'li, bog'li hududlarda dam olingandan so'ng plastik idishlar, yelimxaltalarni o'sha joyda qoldirib ketish tabiatga, qolaversa, o'zimizga ziyon keltirishi haqida o'yab ham ko'rmaymiz. Polietilen modda butunlay parchalanib ketishi uchun 100 yildan 500 yilgacha vaqt kerak bo'larkan.

Bir necha yil oldin yelimxaltalar o'rni-ga qog'oz paketlardan foydalanishga o'tishga da'vat etildi. Do'konlarda yelimxaltalar pullik qilib ham qo'yildi. Biroq ulardan foydalanish kamaydimi? Nazarimizda, hammasi avval qanday bo'lsa, shundayligicha davom etmoqda.

Yana deputatga yuzlanamiz:

– Islom aka, deputatlarning ekologik muvozanatni saqlash yo'lidagi qanday rejalari bor?

– Polietilen kashf etilgandan buyon dunyo bo'yicha jami 9 milliard tonnaga yaqin plastmassa xomashyosi ishlab chiqarilgan. Uning asosiy qismi chiqindixonalar va atrof-muhitga tashlab yuborilgan. Agar dunyodagi mavjud yelimxaltalar bir-biriga bog'langanida ular Yer sharini 4200 marta aylantirishga yetar edi. Plastik chiqindilar suv havzalari va tuproqni ifloslantiradi. O'z navbatida, suv, yer va atmosfera havosining ifloslanishi

insonlar sog'lig'i va hayotiga, biologik xilma-xillikka salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Olimlarning tadqiqotlariga ko'ra, bir kishi o'zi bilmagan holda haftasiga o'rta 250 gramm, bir yilda esa 250 gramm mikro va nanoplastik unsurlarni "iste'mol qilarkan". Kuniga 1,5–2 litr suv ichadigan odam bir yilda 90 ming plastik zarrachalarni qabul qilib oladi. Shunday ekan, bugungi kunda plastik idishlardan qutulishning imkoni bormi, degan savol tug'ilishi tabiiy. Bir qator davlatlarda plastik mahsulotlardan foydalanish qonun yo'li bilan taqiqlangan. Xususan, 2016-yildan boshlab Fransiya o'z hududida bir martalik plastik idishlar ishlab chiqarish va sotishni man etgan birinchi davlat bo'ldi. Yevroparlament ham bundan besh yil ilgari bunday mahsulotlarga taqiq kiritishni ko'pchilik ovoz bilan qo'llab-quvvatlagan. Bugungi kunda dunyodagi qirraq yaqin mamlakatlarda plastik idishlarni sotish va ishlab chiqarishni taqiqlash yoki ularga cheklov joriy qilingan. Bu davlatlarda yelimxaltalarni ishlatish ko'rsatkichi 94 foizga kamayib, bir marta ishlatiladigan qog'oz yoki qayta ishlatiladigan matodan tikilgan xaltachalarga o'tildi. Shuningdek, ayrim davlatlarda yelimxaltalar ishlab chiqarish va ulardan foydalanishga qarshi keskin choralar qo'llanilmoqda. Xususan, Tanzaniyada bunday huquqbuzarlik uchun 2 ming AQSH dollari miqdorida jarima yoki bir yil qamoq jazosi belgilangan. Avstraliyada plastik paketdan foydalanlanganlarga 4600 dollar jarima solinadi.

Bizda ham polietilen mahsulotlardan foydalanishni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Jum-

ladan, mamlakat hududida qalinligi 40 mikron kam bo'lgan polimer plyonkali paketlarni ishlab chiqarish taqiqlangan (eksport uchun ishlab chiqariladigan, tutqichsiz va xo'jalikda foydalanish uchun o'rnlarda sotiladigan polimer plyonkali paketlar, shuningdek, chiriqayotgan polimer materiallardan tayyorlangan paketlar bundan mustasno). Biroq bu amaliyot bugungi kunda to'liq joriy etilmagani bois atrof-muhitda ushbu turdagi chiqindilar ko'payib bormoqda.

Ayni paytda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari tashabbusi bilan mazkur turdagi chiqindilarni tartibga solishni qonuniylashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasining "Chiqindilar to'g'risida"gi qonunining yangi tahriri ishlab chiqilmoqda. Loyihada bir martalik plastik mahsulotlar, xususan, qadoqlash plyonkasi va ayrim turdagi yelimxaltalarni chetdan olib kirish, sotish va ishlab chiqarishni hamda savdo shoxobchalarida ularning savdosini taqiqlash, shuningdek, foydalanilgan plastmassa qadoqlarni qayta ishlab tizimi va ikkilamchi mahsulotga aylantirish orqali muomalaga kiritish tartiblari belgilanmoqda.

"Qars ikki qo'ldan" deb bejiz aytishmagan. Jonajon Vatanimiz tabiatini muhofaza qilish va shu orqali xalqimiz salomatligini asrash faqatgina davlatning ishi emas, balki har birimizning vazifamizga aylinishi kerak. Toki, osmonimiz, havomiz "girdi xatar"dan xoli bo'lsin.

Gulbahor SAID'ANIYEVA,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi
deputati



YURT QAYG'USI

“TURON” SANYOI NAFISA ITTIFOQI

XIX asr oxiri, XX asr boshlariga kelib Turkiston Chor hukumatining xomashyo ombori va bozoriga aylanib qolgan edi. Mustabid harbiy ma'muriyat xalqning ijtimoiy-siyosiy tafakkuri rivojlanishi, madaniy jihatdan yangilanishi, oxir-oqibat o'z mustaqilligini talab qilish darajasiga ko'tarilishidan qo'rqr, shu bois, har bir yangilikka qarshi turardi. Millat xodimlari xalqning ijtimoiy-siyosiy tafakkurini o'zgartirish, uni bosib yotgan “bid'at” atalmish og'ir yuk – g'afldan qutqarish va ma'rifatlantirish uchun o'z maqsadlarini harakatdagi, taqdir faoliyatidagi badiiy tafakkur – dramaturgiya va katta ko'zgu, ya'ni teatr san'ati orqali taqdim etib, unga o'zligini tanitishga, qanday ahvolga tushib qolganini bildirishga, uni uyg'otishga ahd qildilar. Bu g'oyani aks ettiruvchi sahna asarlarini tomoshabinlar ommasiga taqdim etish uchun teatr truppasi zarur edi.

1913-yilda toshkentlik bir guruh millat fidoyilari: Abdulla Avloniy, Munavvar qori Abdurashidxonov, Ubaydulla Xo'jayev, Toshpo'latbek Norbo'tabekov, Muhammadxon Podshoxo'jayev, Komilbek Norbekov, Kattaxo'ja Boboxo'jayev, Bashirulla Asadulla Xo'jayev, Karim Norbekov, Nizomiddin Xo'jayev Sirdaryo harbiy gubernatoriga Toshkent shahrida “Sanoyi nafisa” ittifoqini tashkil etish uchun ariza berdilar. Arizaga

emas, balki ibratxonaga aylantirish uchun kurashdilar. Shu bois minbar teatri asosiy yo'nalish sifatida belgilandi.

Natijada Behbudiyning “Padarkush”, Hoji Mu'inning “Mazluma xotin”, Nusratulla Qudratulloning “To'y”, Abdulla Badriyning “Juvonmarg”, Usmon Xo'janing “Boy ila xizmatkor”, Abdulla Qodiriyning “Baxtsiz ku-yov”, Abdulla Avloniyning “Advokatlik osom-mi” pyesalari dunyoga keldi va sahna yuzini

savtiyaga asoslangan maktablar Turkistonning markaziy shaharlarida ochila boshladi.

Xo'sh, avvallari milliy maktab yo'qmi, degan savol tug'ilishi tabiiy. Avvallari butun Turkiston o'lkasida erlar va qizlar maktabi mavjud edi. Ammo ularda bir maromnoma asosida o'qitish tizimi yo'q edi. Uyda, masjidlar qoshidagi maktabda yoxud otinlar qo'lda 12 yoshgacha o'qigan bolalar madrasada ta'lim olish huquqiga ega edilar. Ammo “boshlang'ich”, “o'rta”, “o'rta maxsus”, “oliy ta'lim” degan tushuncha bo'lmagan. Shu sababli usuli savtiya maktabiga e'tibor qaratildi. 1906-1907-yillarda ochildigan yangi maktablar Mahmudxo'ja Behbudiyning talabiga umuman javob bermagan. Shu bois, u Namangandagi Salohiddin Majidiyning maktabida bo'lib, o'quv tizimi bilan tanishgach, bu maktabdan qanoat hosil qilgan, Salohiddin Majidiyning qattiq tanqid qilgan. Faqat Samarqanddagi Abdulqodir Shakuriy va Toshkentdagi Munavvar qori Abdurashidxonov maktabi talab darajasida ishlagan.

Millat xodimlari bu ishlar bilan ham cheklanmaganlar. Munavvar qori Abdurashidxonov va Abdulla Avloniy milliy adabiy til xususida jiddiy ish olib borishdi. Natijada maktab va sahna vositasida yangi o'zbek adabiy tili shakllana boshladi. Milliy matbuot tili avvalgi ro'znomalardan ancha farqlandi. Til tozalandi, viloyatlar va shaharlar aholisi uchun tushunarli bir adabiy til yuzdaga keldi. (M. Abdurashidxonovning Hamzaning “Zaharli hayot” dramasi tahririga qaralasin).

Mirmulla va Mirmuhsin Shermuhammedov singari “Turon”chilar timsolida milliy adabiyot va teatr tanqidchiligi maydonga keldi. Adabiy tanqidchilik yangicha shakl va mazmun kasb etdi.

“Turon”ning bu harakati 1917-yil oktyabridagi davlat to'ntarishigacha davom etdi. Biroq ikki inqilob orasida yuz bergan iqtisodiy tanglik, ayrimlarning yangi mafkura bilan kelisha olmagani va boshqa qator sabablar tufayli Ittifoq va teatr namoyandalari kasbini o'zgartirishga majbur bo'ldilar. Hatto, ularning Turkiston muxtoriyatini qo'llab-quvvatlash uchun ishlashlariga to'g'ri keldi. Muxtoriyat e'lon qilingan vaqtga ko'pchilik milliy ziyolilar Qo'qonda edi. Teatr o'zining ishlab topgan pulini Muxtoriyat hisobiga o'tkazgani haqida Badriddin Al'omov va Mannon Uyg'ur imzosi bilan “El bayrog'i” gazetasida ma'lum qildi. (Teatrning ilk rejissori Nizomiddin Xo'jayev 1937-yilda qatag'on qilindi, undan keyingi rejissori Badriddin Al'omov dashnoqlar fitnasi-ni bostirishdan so'ng qaytib kelib, yoshgina vafo etdi).

Yangi milliy teatr muassislari va ijodkorlari sinovli yillarning og'irligi, bolsheviklarning xiyonatkorligi, mafkurasining mustamlakachilik bilan yo'g'irilganiga elga ochiq-oydin yetkazish istagi bois, diktatura va mustamlakachilikka qarshi asarlarni tomoshabinlarga taqdim etishdi. Teatrga badiiy rahbar etib tayinlangan Mannon Uyg'ur uning repertuariga jiddiy o'zgartirishlar kiritdi: Vatanni mustabid bosqinchilardan qutqarish masalasi kun tartibiga qo'yildi. Muhammad Said O'rduobodning “Andalusning so'ng kunlari”, Fitratning “Hind ixtilochilari”, “Chin sevish”, Hamzaning “Boy ila xizmatkor” dramalari xalqqa ko'rsatildi. G'ozu Yunusning yakkaohokimlik, diktator va diktaturaga qarshi “Zahhoki moron” dramasi omma tomonidan samimiy kutib olindi. G'ulom Zafariyning “Halima” ijtimoiy muzikali dramasi uzluksiz ravishda 17 yil namoyish etildi.

Ana shu jarayonda bolsheviklar truppa repertuari va tarkibini tozalash ishlari boshlandi. Munavvar qori Abdurashidxonovning taklifi bilan ko'pchilik bolsheviklar firqasiga a'zo bo'ldi. Mannon Uyg'ur, Qudratulla Ma'zumov, Qudratulla Yunusov, Abdulla Avloniy, Cho'lpon, Muhammadxon Podshoxo'jayev, Nizomiddin Xo'jayev va boshqalar “qizil daf-tarcha”lik bo'ldilar.

Leninning ko'rsatmasi bilan sobiq imperiya hududidagi barcha teatrlar va truppalari majburiy ravishda inqilob tashviqotiga yo'naltirildi. Jumladan, Mannon Uyg'ur rahbarligidagi truppa Oqtuba (Aktuyubinsk) frontiga, Mirzag'ofir Musaxonov rahbar, Hamza Hakimzoda asosiy rejissyor bo'lgan O'lka siyosiy truppasi Kaspiyorti frontiga jalb etildi. Besh-olti oylik safarbarlikdan so'ng har ikki jamoa o'z-o'zidan tarqalib ketdi. Mannon Uyg'ur esa Munavvar qori Abdurashidxonovning iqtisodiy qo'llab-quvvatlashi, Akmal Ikromov hamda Fayzulla Xo'jayevning yordami bilan Moskvadagi teatr institutiga tahsil olgani ketdi. Nomi zikr etilganlarning ko'pchiligi 1920-yil boshidayoq “qizil daftarcha”ni egasiga topshirdilar.

Mannon Uyg'ur teatr institutida bir yil tahsil olgach, 1924-yilda yuqorida nomlari keltirilgan kishilarning quvvatlashi bilan Moskvada o'zbek dramastudiyasini tashkil etdi.

“Turon” musulmon drama san'ati ittifoqi ijodiy faoliyatini shu tariqa yakunladi. Sobiq “Turon”chilar va Shokirjon Rahimiy, Mannon Uyg'ur, Cho'lpon, Otajon Hoshim tarbiyasini ko'rgan milliy ruhda yosh yigit-qizlardan iborat “Namuna” truppasi tuzildi (1927-yil). Mannon Uyg'urga mafkuraviy ishonch yo'qligi bois, “Namuna” davlat truppasiga P.Alekseyev degan moskvalik san'atkor bosh rejissyor va badiiy rahbar etib tayinlandi. M.Uyg'ur rejissyor sifatida ishini davom ettirdi. Repertuar ham, ijod ahli ham bolsheviklar talabi bilan mul-laqo yangilandi. Biroq “Turon”ning ijodiy, ma'haviy an'anasi yo'qolmadi. O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligini e'lon qil-gan davrgacha goh oshkora, goh yashirin tarzda bu an'ana davom etdi... Shu bois “Turon” truppasi va uning asoschilari milliy madaniyatimiz tarixida faxrlanishga arzi-gulik nom qoldirdilar. Bu – sinmas va egilmas haqiqatdir.

Sirojiddin AHMAD

XOTIRA AZIZ

(Davomi. Boshlanishi o'tgan sonlarda.)

Muhammadjonov Abdusalom Boybachcha – 1878-yili Qo'qon shahrida tug'ilgan, sobiq quloq. Qamoqqa olingan paytida aniq mashg'uloti bo'lmagan. “Sho'roi islamiya” aksilinqilobiy tashkiloti a'zosi, Qo'qon muxtor hukumati harbiy ministri yordamchisi bo'lgan. “Sho'roi Islom” rahbarlarini yig'ib, Qo'qon qo'zg'olonini tashkil etishda faollik ko'rsatgani, aksilinqilobiy targ'ibot olib borgan uchun ayblanib, hibsga olingan.

Muhammadjonov Muhammad Amin – 1894-yili Qo'qon shahrida tug'ilgan. Aksilinqilobiy “Milliy ittihad” tashkiloti a'zosi bo'lgan. Qamoqqa olingan vaqtga O'zbekiston oziq-ovqat savdo inspektori vazifasida ishlagan. U bosmachilar to'dalarini tashkil etishda faol ishtirok etgani, bosmachilarni qurol bilan ta'minlagani, 1920-yili bolsheviklarga qarshi kurash olib borishga chaqirgani, xalq dushmanlariga yetakchilik qilgani uchun ayblangan.

QATAG'ON QURBONLARI

No'monov Jalol – 1893-yili Namangan shahrida tug'ilgan, savdogarning o'g'li, ikki marta sudlangan. 1927-yili aksilinqilobiy faoliyati uchun 5 yil va 1935-yili 1 yil qamoq jazosiga hukm etilgan. Hibsga olingan vaqtga konserva zavodida tayyorlov punkti mudiri bo'lib ishlagan.

Aksilinqilobiy “Milliy ittihad” tashkiloti a'zosi bo'lgan. Unga aholi orasida aksilinqilobiy, mag'lubiychilik targ'ibotini olib borgan, bosmachilar to'dalariga xayri-xohlik bildirgan, ularga o'qodordan yordam bergan, 1939-yildagi aksilinqilobiy yig'inda faol ishtirok etgan, degan ayblov qo'yilgan.

Jo'raboyev Oxundada – 1898-yili Namangan shahrida tug'ilgan. Quloqqa tortilgan. O'zSSR IXK Namangan shahar bo'limining 12568-sonli ishi bo'yicha 10 yil mehnat-tuzatuv lageriga hukm etilgan. Hibsga olingan vaqtga artel a'zosi bo'lgan. Unga o'tmishda “Milliy ittihad” aksilinqilobiy tashkilotining faol a'zosi bo'lgan. Qamoqdan ozod bo'lgach, “Milliy ittihad” tashkiloti a'zolari bilan aloqani uzmagani, sovet hokimiyatiga qarshi targ'ibot olib borilgan yashirin yig'ilishlarida faol qatnashgani uchun ayblangan.

Murtaxonov Isaxon – 1879-yili Chust shahrida tug'ilgan. Quloqqa tortilgan. O'zSSR IXK Namangan shahar bo'limining 12568-sonli ishi bo'yicha 10 yil mehnat-tuzatuv lageriga hukm etilgan. Hibsga olingan vaqtga artel a'zosi bo'lgan. Unga o'tmishda “Milliy ittihad” aksilinqilobiy tashkilotning faol a'zosi bo'lgan. Qamoqdan ozod bo'lgach, “Milliy ittihad” tashkiloti a'zolari bilan aloqani uzmagani, sovet hokimiyatiga qarshi targ'ibot olib borilgan yashirin yig'ilishlarida faol qatnashgani uchun ayblangan.

Yodoshqoriyev Abdullajon – 1884-yili Namangan shahrida tug'ilgan. Namangan shahar Dumasi va Qo'qon (Turkiston – R.Sh.) muxtoriyati a'zosi. Hibsga olingan vaqtga qishloq matlubot jamiyati ombor mudiri bo'lgan. O'zSSR IXK Namangan shahar bo'limining 3365-sonli ishi bo'yicha ayblangan.

U aksilinqilobiy “Sho'roi islamiya” tashkilotining a'zosi, “Milliy ittihad” aksilinqilobiy tashkiloti a'zolari bilan aloqada bo'lganlikda, matlubot kooperatsiyasida kol-xozchilar o'rtasida norozilik uyg'otish maqsadida qo'poruvchilik, zararkunandalik ishlari olib borganlikda ayblangan. 10 yil mehnat-tuzatuv lageriga hukm qilingan. Jazo muddati 1937-yil 12-oktyabrdan hisoblangan.

Qodirov Nasriddin – 1886-yili Namangan shahrida tug'ilgan, shahar Dumasing sobiq a'zosi. O'zSSR IXKning Namangan shahar bo'limi 4999-sonli ishi bo'yicha ayblangan. Aksilinqilobiy “Sho'roi islamiya” tashkilotining kotibi sifatida qamoqqa olingan paytda tayin mashg'uloti bo'lmagan. Aksilinqilobiy taslimchilik targ'ibotini olib borganlikda, maktabda o'qituvchilik qilgan vaqtga mag'lubiychilik qarashlarini tarqatganlikda ayblanib, 10 yil mehnat-tuzatuv lageriga hukm etilgan. Jazo muddati 1937-yil 4-oktyabrdan hisoblangan.

Nuriddin Qoriyev – 1889-yili Namangan shahrida tug'ilgan, sobiq savdogar. O'zSSR IXKning Namangan shahar bo'limining 3325-sonli ishi bo'yicha 1931-yili aksilinqilobiy faoliyati uchun 8 yil qamoqqa hukm etilgan. Hibsga olingan paytda Ashxobod shahrida davlat bankida iqtisodchi bo'lib ishlagan. U o'tmishda “O'n sakkizlar guruhi” a'zosi bo'lgan. Aksilinqilobiy “Milliy ittihad” va “Nashri maorif” tashkilotlari a'zosi sifatida tashkilotga a'zolar yollash bilan mashg'ul bo'lganlikda, aholi orasida muttasil aksilinqilobiy targ'ibot olib borganlikda ayblangan.

Rahmonov Toji – 1882-yili Namangan shahrida tug'ilgan, eshonning o'g'li. 1932-yili aksilinqilobiy faoliyati uchun javobgarlikka tortilgan. U “Milliy ittihad”, “Nashri maorif” kabi aksilinqilobiy tashkilotlarning a'zosi bo'lgan va bu tashkilotlarga a'zolar yollash bilan shug'ullangan. Yashirin yig'inlarda aksilinqilobiy mag'lubiychilik targ'ibotida ishtirok etgani uchun 10 yil qamoq jazosiga hukm etilgan. Jazo muddati 1937-yil 29-avgustdan hisoblangan.

Rustambek SHAMSUTDINOV,
tarix fanlari doktori,
professor,
Nigoraxon AKBAROVA,
ilmiy xodim

(Davomi kelgusi sonda.)



qo'shimcha sifatida “Turon” truppasi tarkibini ham ilova qildilar. Biroq bosqinchi sansalorchi byurokratlar tomonidan ittifoqning Nizomi talab qilindi.

Shundan so'ng muassislar tomonidan ukrain, rus, yahudiy teatr uyushmalarining nizomini har tomonlama o'rganish asosida “Toshkent shahridagi “Turon” musulmon drama san'ati havaskorlari ittifoqining 73 maddadan iborat Nizomi ishlab chiqilib, Sirdaryo muzofot harbiy gubernatoriga taqdim etildi. (Nizomning 1916-yil, 11-noyabrda Toshkent shahar notariusi D.Yegorov tomonidan № 7176-raqami bilan ro'yxatga olingan nusxasi qo'limizda saqlanadi).

Nizomda quyidagi maqsadlar aniq ko'rsatilgan: a) aholi o'rtasida sahna ishlari va xayriyaga jiddiy munosabat-muhabbatni rivojlantirish; b) xalq uchun spektakl ko'rsatish, unga sog'lom tomosha berish; v) Turkiston o'lkasida hududida yashovchi muhtoj ahli musulmining moddiy va ma'naviy ahvolini yaxshilash uchun moddiy yordam ko'rsatish.

2) Ko'zda tutilgan maqsadlarni amalga oshirish uchun Ittifoq kechalar, konsertlar, spektakllar va boshqa ommaviy tomoshalar o'tkazish huquqiga ega. O'z nomiga klub va musiqa kurslari ochadi, o'zining kutubxona va qiroatxonasiga ega bo'ladi. Boshlang'ich maktablar ochish va saqlash, muhtojlarga, jumladan, o'quvchilarga yordam puli berish, o'rta va oliy maktablarda o'qishni davom ettirish uchun stipendiya to'lash, shuningdek, davlatnikimi, xususiyimi, jamiyatnikimi – qanday tizimda bo'lishidan qat'i nazar, mavjud xayriya va ma'rifat muassasalarini moddiy quvvatlash”. Nizomda, shuningdek, sahna san'ati talablariga keng o'rin berilgan, har bir a'zoning vazifasi aniq belgilangan.

Ushbu maqsad va vazifalar qanchalik amalga oshdi? Turkiston tumani maxfiy xizmati ma'lumotiga qaraganda, Abdulla Avloniy, Bashirulla Xo'jayev, Muhammadxon Podshoxo'jayev, Nizomiddin Xo'jayev, Musaxon Mirzaxonov, Qudratulla Ma'zumov, Ubaydulla Erg'oziyev, Shomurot Shoyoqubov, Qudratulla Yunus Muhamedov, Mirsiddiq Avlonov, Shokirjon Rahimiy muassisligida “Turon musulmon dramatik san'ati truppasi” tuzildi. Oradan ko'p o'tmay truppaqa Sulaymon Xo'jayev, Badriddin Al'omov, Hasan qori Xoniy, Eshonxo'ja Xoniy, Sami'ye qori Ziyaboyev, Umarqul Anorqulov, Fuzail Jonboyev, Salimxon Tillaxonov, Mannon Majidiy va boshqalar qabul qilindi, truppa tarkibi kengaydi.

Millat xodimlari xalqning ijtimoiy ongini ochish, asta-sekin siyosiy yo'nalish berish maqsadida teatrni ko'ngilochar maskan

ko'rdi. “Turon”chilar mustamlaka hokimiyati tazyiq va ta'qibiga qaramay jiddiy ishlarni amalga oshirishga muvaffaq bo'ldilar. Birinchi sinov spektakli – “Vatan qahramonlari” dramasi 1913-yil avgust oyida Toshkentdagi Shayx Hovandi Tahir sayilgohida ko'rsatildi. (Bu haqda Munavvar qori Abdurashidxonovning Tataristonda nashr etilgan “Quyoshi” gazetasida spektakldan tushgan pulning nimalarga sarflanishi haqida hisoboti e'lon qilindi. “Tarjumon” gazetasi ham ushbu ma'lumotni ko'chirib bosgani ma'lum). Xalqning bu asarni yaxshi kutib olganiga ishonch hosil qilgan



truppa 1914-yil 27-fevraldan e'tiboran “Padarkush” dramasi bilan o'zining rasmiy ijodiy mavsumini boshladi.

Aytilgan asarlar tomoshabinlarga Turkistonning maishiy, ijtimoiy va siyosiy ahvolini haqqoniy namoyon etdi. El farzandlarining qiynalib ishlab topayotgan mablag'i, dehqonlarning qishin-yozin ter to'kib qo'liga kiritgan pullari hoy-u havas yo'lida sovurilayotgani, xotin-qizlar ahvoli xalqqa ko'zgudagidek ko'rsatildi. Xalq o'z taqdiridan qanchalik rozi va noroziligi insonlar taqdiri talqini orqali ibrat sifatida ko'rsatildi, bu bilan yangicha tafakkurga yo'l ochildi.

Mustabid hukumat tazyiqidan qat'i nazar, “Turon” a'zolari Toshkent shahrida “Turon” va “Ravnaq” nomlarida kutubxona, qiroatxonada, “Turkiston kutubxonasi”, “Umid” nashriyotlarini tashkil etdilar. Bu harakat Turkistonning boshqa shaharlariga ham ko'chdi.

1901-yildan boshlab milliy maktab yaratish masalasiga jiddiy e'tibor qaratildi. Usuli

Buyuk muallim Munavvar qori Abdurashidxonov milliy maktabga asos soldi: shogirdlarga tizimli ta'lim-tarbiya berish tizimini ishlab chiqdi. (Samarqandlik boylar Toshkentga maxsus vakil yuborib, uning o'qitish usulini, ta'lim-tarbiya tizimini o'rganishgan). Natijada boshlang'ich va o'rta milliy maktab ochildi. N.Ostroumovning qarshiligiga qaramay, ba'zan oshkora, ba'zan maxfiy ravishda o'quvchilarga ona tili va adabiyot, geografiya, tarix (umumiy, milliy va islom tarixi), jamiyatshunoslik, o'zga davlatlardagi o'rta, oliy maktablar haqida, insonlar huquqi to'g'risida tushuncha-ma'lumot berildi. Riyoziyot (matematika), rus tili rasmiy ravishda fan sifatida kiritildi. Ikk bor o'rta maktabda jismoniy tarbiya darsi yo'lga qo'yildi. Toshkentlik boylarning boshi qovushirilib, yoshlarni xorijga o'qishga yuborish masalasi ijodiy hal qilindi.

“Turon” sanoyi ittifoqi kutubxona, xayriya, maktab va teatr muammosini hal qilgan ekan, xalqni o'zligini tanish va o'z huquqini talab qilish darajasiga ko'tardi. Bu og'ir va mas'uliyatli vazifani bajarishda Saratov shahrida tahsil olib, da'vo vakili huquqini qo'lga kiritgan Ubaydulla Xo'jayev, Sankt-Peterburg universitetining yuridik bo'limini bitirgan Toshpo'latbek Norbo'tabekovning o'rni va xizmati beqiyos.

Millat xodimlari yuqorida biz zikr etgan tashkilotlar faoliyatini yo'lga qo'yish bilan kifoyalanishmadi. Turkiston xalqining xayoliga kelmagani “Dorul aytom” (“Yetimlar uyi”), “Dorul ojizin” (“Ojizlar uyi”), ya'ni muhtoj kishilar uchun maxsus mehribonlik uyini tashkil etdilar. (Bunday muassasalar keyinchalik Qo'qonda ham tashkil qilindi). Qashshoq, kambag'al kishilarning bolalarini o'qitishga jiddiy ahamiyat berildi. Chunki o'sha davrda ishsizlik, dehqonlar va hunar ahli soliqlarni arang to'lab yashayotgani bois farzandlarini boshlang'ich maktabda o'qitish imkoniyatiga ega emasdilar. Ayrim kishilarning o'qituvchiga bir oyga 10 tiyin to'lashga ham imkoniyati yo'q edi. Ana shunday ahvoldan qutulish uchun “Turon” sanoyi ittifoqi a'zolarining vatanparvarligi, millatsevarligi tufayli “Jamiyati imdodiya”, “Gramstudiya” (likopchalariga ho'fizlar ovoziini yozish muassasalari) tashkil etildi. “Sadai Turkiston” gazetasi nashr etila boshlandi.

“Turon” musulmon drama san'ati havaskorlari ittifoqining har bir spektakldan so'ng hisoboti matbuotda e'lon qilingan. Hisobotlarga qaraganda, spektakldan tushgan daromad maktablar, kutubxona, mehribonlik uyi, yetimxona, hatto yarador bo'lgan rus askarlariga yordam tariqasida o'tkazilgan. Bu holat keyingi asarni namoyish etishga yo'l ochgan.



BUGUNNING GAPI

O'tgan yili 22-dekabrda bo'lib o'tgan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan yig'ilishida Davlatimiz rahbari hal qilinishi lozim bo'lgan muhim vazifalar qatorida O'zbekistonda teatr san'atini rivojlantirish masalasiga ham o'xtalib, jumladan, shunday degan edi: "O'ning bir kunini "Teatr kuni" deb e'lon qilib, hamma xodimlarning teatrga borishini yo'lga qo'ysak, o'ylaymanki, har tomonlama foydali bo'ladi". Nihoyatda o'rinni va dolzarb bo'lgan bu masalaga hokimliklar, oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlari, maktablar, ishlab chiqarish korxonalar rahbarlarining munosabati qanday bo'ldi?



HOKIM QACHON TEATRGA TUSHADI?

Ana shu savolga javob izlab, poytaxtimizda faoliyat ko'rsatayotgan Milliy akademik drama teatri, Muqimiy nomidagi musiqali teatr, Yosh tomoshabinlar teatri, Katta akademik teatri, O'zbekiston drama teatri, Musiqali komediya (operetta) teatri, rus drama teatri, Satira teatri mutasaddilariga murojaat qildik. Ma'lum bo'lishicha, aksariyat teatrlar bir qator vazirlik, idoralar, turli tashkilotlar bilan spektakllarga tomoshabinni jalb etish bo'yicha shartnomalar tuzishgan. Bu borada Milliy akademik teatr, Rus drama teatri, Katta akademik teatr va Yosh tomoshabinlar teatrlari yetakchilik qilishyapti. Boshqa teatrlarda ham harakat bor. Muhimi, shartnoma tuzishda tashkilotlarning o'zlarini tashabbus ko'rsatishyapti.

sayyor, "Yer baribir aylanaveradi", "Jinlar bazmi", "Ishlaganday bo'laylik", "Romeo va Julietta" dramalari, "Alisher Navoiy", "Kumush", "Faust" operalari, "Layli va Majnun", "Usmon Nosir" kabi musiqali dramalar tomoshabinlarda katta taassurot qoldiryapti. Xullas, bir qaraganda, bugun teatrlarda ishlar yomon emas. Muhimi, tomoshabin teatrlarga qaytayapti. Shu o'rinda yana bir gap. Biz teatr mutasaddilariga "Shartnoma tuzgan vazirliklar, idoralar, tashkilotlarning rahbarlari ham spektaklga shaxsan tashrif buyurayaptilarmi?", degan savol bilan murojaat qildik. Afsuski, javoblar qoniqarli bo'lmadi. Toshkent shahrida joylashgan barcha teatrlarga vazirlar va tashkilot rahbarlarining xodimlari, ba'zan o'rinbosarlari kelishgan. Faqat Milliy teatrning ayrim spektakllariga Shayxontohur, Yakkasaroy tumanlari hokimlari, Katta akademik teatrga Transport vazirligi vaziri hamda o'rinbosarlari kelgan. Satira teatri Qoraqalpog'iston Respublikasida ijodiy safarda bo'lganida Qoraqalpog'iston Respublikasi vaziri o'rinbosari hamda Nukus shahar hokimi spektakl tomoshasida hozir bo'lishgan.

Xo'sh, viloyatlarda bu jarayon qanday kechayapti? Odatda, oilada ota-ona farzandlariga o'rnak bo'lishi kerak, deb uqitib kelamiz. Rahbarlar ham o'z tashkilotining ota-onasi emasmi? Shunday bo'lgach, avvalo, ularning o'zlarini teatr, konsert tomoshalariga borishlari lozim. Ular ham O'zbekistonning bugungi teatr hayoti, umuman, madaniy qiyofasi haqida aniq tushunchalarga ega bo'lishlari, buning uchun esa tomosha maskanlariga borishda o'rnak ko'rsatishlari muhim ahamiyatga ega, deb o'ylaymiz. Vaholanki, yig'ilish bo'lib o'tganiga ham ikki oydan oshdi. Vaqt esa kutib turmaydi. Har bir kunimiz, soatimiz, hatto daqiqamiz g'animat. Yoshlarning ma'naviy-ma'rifiy tarbiyasi bilan bog'liq vazifaning o'z vaqtida bajarilishi kelajagimiz sari tashlangan yana bir xayrli qadam ekani kunday ravshan. Gap faqat harakatga tushishda. Nahotki, hokimlar, rahbarlar xodimlarni teatrlarga tushish kuni belgilanishini kutib o'tirishlari kerak bo'lsa? Qachon shaxsiy tashabbus ko'rsatishga o'rganamiz?!

Gulchehra UMAROVA

HJV

GENDER TANGLIK

Xotin akam, gender, deydi, Huquqimiz tengdir, deydi. Ko'ngilni sal kengroq tuting, Kengga dunyo kengdir, deydi.

Men g'ijini, gender, deyman, O'ylab topgan sendir, deyman. Mana, senga qora o'choq, Mana, senga tandir, deyman.

Xotin kulib, gender, deydi, Kimdadir bet - chandir, deydi. Aravani teng tortamiz, Siz yoqa, men yengdir, deydi.

Men bo'g'ilib, gender, deyman, Uyda erkak mendir, deyman. Supurgini ho'llab supir, Toshko'mirni sindir, deyman.

Xotin yana, gender, deydi, Xotin-bo'y, er endir, deydi. Qizingiz bor, o'ylang birrov, Yomon erkak "sen" der, deydi.

Men bo'shshib, gender, deyman, Qizim - jonim, chindir, deyman. Jon joyimdan ushlading-ku, Ha, enangni emgir, deyman.

Mulla XUNOB



Husan SODIQOV chizgan surat.

TILBILIM

EGACHI

"O'zbek xalq shevalari lug'ati"da yozilishicha, ba'zi shevalarda "egachi" ("əkəji", "egach") deb akening xotini, ya'ni yangaga nisbatan aytiladi. Ammo adabiy tilda, shuningdek, ayrim shevalarda "egachi" deganda "opa" tushuniladi: "egachi-singil" - "opa-singil".



Bu so'z "ega" so'zidan yasalmagan, "Devon-u lug'otit-turk"da "əkä" so'zi bor va u shunday izohlangan: "əkä - opa. O'g'uzlar äzä deydimlar". Ba'zi o'zbek shevalarida bu so'z "acha", "eja"; qirg'izlar ham "opa'ni - "eja" deydimlar. "Boburnoma"da Bobur bu so'zni "äka" shaklida qo'llaydi, ammo "Mo'g'ullarning sirlilari" asarida "äkä" so'zi "ona" ma'nosida qo'llangan.

"O'zbek tilingning etimologik lug'ati"da Sh.Rahmatullayev "egachi" so'zini: "akaning xotini, yoshi katta xotinga ayol kishining murojaat so'zi. Bu so'z qadimgi turkiy tildagi "opa" ma'nosidagi "äkä" so'zidan e'zozlash ma'nosini ifodalovchi "-chi" qo'shimcha bilan hosil qilingan", deb izohlaydi. Ammo "Devon-u lug'otit-turk"da "äkäch" shakli ham bor va u shunday izohlangan: "äkäch - o'zining ortiq siyrakligi bilan odamlarga xuddi o'z singlisidek tuyuluvchi yosh qiz; bu so'z yosh qizlarni sevish, erkalash uchun qo'llanadi". Bu izohdan "-ch" qo'shimchasining kichraytirish, erkalash ma'nosi ham borligi anglashiladi.

"Mo'g'ullarning sirlilari" obidasida turkiy so'zlarning ko'pligi haqida avvalgi maqolalarda ham aytilgan edik, asarda "opa" ma'nosida bir necha o'rinda aynan "egachi" (ägäçi) so'zi ishlatilganini ko'rish mumkin. Xususan, Chingizxon tatarlar ustidan g'alaba qozonib, tatar Yeke-Cheren (Yäkä Çärän) ning qizi Yesugan xotun (Yäsügän qatun)ga uylanmoqchi bo'ladi. Shunda Yesugan Chingizxonga: "Mening Yesuy ismli opam bor (ägäçi Yäsui), xon mendan oldin opamga uylansa...", deb opasini ham xonga taklif etadi. Asarning hozirgi mo'g'ul tiliga qilingan tabdilda aslyatdagi: "Mening egachim Yesuy" - "miniy egch Yesuy", deb o'girilgan, ya'ni hozirgi mo'g'ul tilida ham turkiy "egachi" - "opa" ma'nosida "egch" shaklida qo'llanadi.

Alqissa, "egachi" - "opa"ning sinonimi, "-chi" qo'shimchasi e'zozlash, erkalash ma'nosida, ba'zi shevalarda akaning xotinga nisbatan ham "egachi" deb aytilishini esa hurmat yuzasidan, deb tushunish mumkin.

Abduvohid HAYIT

MULOHAZA

Koinot ichra Yer deb atalmish makonda bugun yetti milliarddan ziyod odam yashamoqda. Har birining barmoq izlari bir-biriga o'xshamagani kabi, qiyofalari ham o'zgacha. Xuddi shunday birovning qalbi birovnikiga o'xshamaydi. Bu haqda o'ylaganingda ko'nglingda bir shirin g'urur uyg'onadi: qanday ajoyib, bu dunyoda yana xuddi senday ikkinchi bir odam yo'g'a?! Sen betakrorsan va yagonasan! Ya'ni Alloh har birimizga o'zimizga mos ko'z-qosh, tabassum, jilva bergan. Qalbimiz, ko'nglimiz, aql-farosatimiz ham faqat o'zimizga xos.

Shu o'rinda noyob qiyofamizning ko'zguisi bo'lmish ko'z haqida to'xtalsak. Zero, ko'z - inson uchun eng muhim a'zo. U nafaqat ranglarni ko'radi, balki butun vujudimizni his qilishga: quvonish yoki azoblanish, qo'rquv yoki halovat tuyishga undaydi... To'g'ri, bugun jarrohlikning qo'lli bilan burun, quloq yoki qabog'imizni o'zgartirib olishimiz, soch va kipriklar ektirishimiz mumkin, ammo baribir ko'zni hech narsa bilan almashirib bo'lmaydi.

Ko'z haqida - ehtimol, siz ko'proq bilarsiz - biz yuritmoqchi bo'lgan gap boshqa ma'noda. Xo'sh, nega bugun bir-birimizdan ko'zimizni olib qochadigan bo'ldik?! Yolg'onchilar ko'payib ketdimi? Munofiqlik aksariyat odamlarning qiyofasiga aylandimi? Xalqimizda: "Yuzingda ko'zing, demasdan-a..." yoki "Ikkiyuzlamachilik qilma!" degan gaplar bor... Xullas, ikkiyuzlamachilar, ya'ni asl qiyofasini bilib bo'lmaydiganlar ko'payib bormayaptimi?! Qiyofasizlik aslida turlanadigan, aytganidan tonadigan, suvdan quruq chiqib ketishga ustasi faranglar uchun qulay niqob.

Xo'sh, qiyofasizlik qayerdan paydo bo'ladi? Bunga qanday vositalar sabab bo'lmoqda? Meningcha, bir holat "telefon"

QIYOFASIZLIK



degan matoh paydo bo'lganidan keyin avj oldi. To'g'ri, bu bilan men taraqqiyot mahsuli bo'lgan telefonni butkul inkor etmoqchi emasman, dastiyorchilikda uning bahosi yo'q. Lekin, tan olish kerak, aynan telefon qiyofasizlarga qulaylik tug'dirdi. Yaxshi-da: telefonda gaplashayotgan odam hech kimning ko'ziga qaramaydi, xijolat tortmaydi, yuzi qizarmaydi, uyalmaydi...

Aynan telefonga qaramlik ikkinchi sababni keltirib chiqardi. Ko'pchilikda kitobxonlikdan uzoq-qo'zga termiladi. Qiziq, nega shunday?! Ehtirol, yorug' yuzdan yog'ilayotgan nurdan ko'zlari qamashar yoki o'tkir nigohning nayzalaridan, yo bo'lmasa, haqiqat yog'ilib turgan so'zlarning olovidan o'zlarni olib qocharlari?! Yoki va'dalarining ush-tidan chiqolmayotganidan "vijdon"i qiynaladimi?.. To'g'ri, Yurtboshimizning o'zing uchun eslatma qilib olmasang bo'lmaydigan gaplari, fikrlari ko'p. Ammo ba'zi gaplar borki, uni ko'zlar-

ga qarab tinglaganga nima yetsin! Gohida nimalarni yozar ekanlar, deb kuzataman. Ming afsuski, ba'zilari surat chizib o'tirganini ham ko'rdim. Yurtboshimiz jon kuydirib, elning g'amida qayg'urmoqda, qiyofasizlar-chi?..

Shunday qilib, ijtimoiy tarmoqlarda ko'zlarimizni bir-birimizdan yashirib, ig'volar, mish-mishlar uyasi bo'lmish uyali telefonlar orqali bemalol yolg'on va tuhmatlar, do'q-po'pisalar qilaverdik. Sevgi izhorlari osonlashdi, mehrlar soxtalashdi. Chunki telefonda ko'zlarimiz ko'rilmaydi, yonmaydi. Yuzlarimiz qizarmaydi, lablarimiz titramaydi. Shundanmi, gaplari boshqa, qilmishlari boshqa, yozmishlari boshqa, tutumlari o'zgacha bo'lganlar ko'paymoqda.

Hadisi sharifda "Nohaqlikni ko'rsangiz, qo'lingiz bilan qaytaring, unga qurbingiz yetmasa, tilingiz bilan, agar unga ham nochor bo'lsangiz, dilingizda norizo bo'lib turing", deyilgan ekan. Qani, Allohga labbaykamiz?! Til va dilingning birligi bo'lmas ekan, yolg'onlar urchiyveradi. Xiyonat va munofiqlik g'alaba qilaveradi. Oilalar parokanda bo'laveradi, mushfiqlar, mungillar ko'payaveradi. O'zining fikri yo'q, faqat birovning gaplarini aytib yuradigan to'tinamo sayroqlar paydo bo'laveradi...

"Inson" so'zi "unutuvchi" degan ma'noni anglatar ekan. Ey, Inson! O'yla, tafakkur qil! Axir, maxluqotlar ichra faqat sengainga tafakkur qilmoq baxti berilgan-ku! Ikki soatlik tafakkur - yetmish kunlik ibodat bilan teng, degan mashohiyatlar. Gunohlarning eng oliylaridan biri munofiqlik, ya'ni QIYOFASIZLIK ekan! Qiyofasizlik maqomidan kech, aslinga qay! Zero, Mavlono Rumiy qocharlari?! Yoki va'dalarining ush-tidan chiqolmayotganidan "vijdon"i qiynaladimi?.. To'g'ri, Yurtboshimizning o'zing uchun eslatma qilib olmasang bo'lmaydigan gaplari, fikrlari ko'p. Ammo ba'zi gaplar borki, uni ko'zlar-

Farida AFRO'Z

Jadid

Muassislar:

O'ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI

RESPUBLIKA MA'NAVIYAT VA MA'RIFAT MARKAZI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI

MILLIY MASS-MEDIANI QO'LLAB-QUVVATLASH VA RIVOJLANTIRISH JAMOAT FONDI

"SHAHIDLAR XOTIRASI" JAMOAT FONDI

Bosh muharrir: Iqbol Mirzo

Bosh muharrirning birinchi o'rinbosari: Humoyun Akbarov

Navbatchi muharrir: Muyassar Ibrohimova

Sahifalovchi: Erkin Yodgorov, Nigora Tosheva

Muallif fikri tahririyat nuqtai nazaridan farqlanishi mumkin.

Gazeta 2023-yil 26-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 195115 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Kirill yozuvidagi adadi - 5870 Lotin yozuvidagi adadi - 11905

Buyurtma: G - 340. Hajmi: 4 bosma taboq, A2. Nashr ko'rsatkichi - 222. Tashkilotlar uchun - 223. 1 2 3 4 5 6



Manzilimiz:

Toshkent shahri, Shayxontohur tumani, Navoiy ko'chasi, 69-uy

Telefonlar:

Qabulxon: (71) 203-24-20 Devonxon: (97) 745-03-69 jadidgzi@mail.ru (71) 203-24-17 Jadid_gazetasi@exat.uz

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi.

Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Bosishga topshirish vaqti: 21:00 Bosishga topshirildi: 00:40 Sotuvda narxi erkin.

